

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“KASBIY TA‘LIM” KAFEDRASI

DUSIYAROV XASAN RAVSHAN O‘G‘LI

**“BUXGALTERIYA BALANSI, UNING TUZILISHI VA
MAZMUNI” MAVZUSI BO‘YICHA DARS O‘TISHDA
MODELLASHTIRUVCHI AMALIY O‘YINLARNI QO‘LLASH**

5111000 - “Kasb ta‘limi” (5230900-Buxgalteriya hisobi va audit)

ta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Moliyaviy menejment” fakulteti
dekani, i.f.n., dots. **Astanakulov O.**

“Kasbiy ta‘lim” kafedrası mudiri
i.f.d., prof. **Omonov A.**

2017-yil “__” _____

2017-yil “__” _____

Ilmiy rahbar: _____ **dots. Sh. G‘aniyev**

Ilmiy maslahatchi: _____ **o‘q. D. Abdumajidova**

Bitiruvchi: Dusiyarov Xasan Ravshan o‘g‘li

Men, Dusiyarov Xasan Ravshan o'g'li, MKT(BHA)-60 akademguruh talabasi ushbu bitiruv malakaviy ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda bitiruv malakaviy ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

“ ____ ” _____ 2017 yil

Dusiyarov Xasan Ravshan o'g'li

MUNDARIJA		betlar
KIRISH		3
1-BOB. BUXGALTERIYA BALANSI, UNING TUZILISHI VA MAZMUNINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI		6
1.1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibi va tuzilishining mohiyati.....		6
1.2. Xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida balansda sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar va ularning buxgalteriyadagi ahamiyati.....		17
1-bob bo‘yicha xulosa.....		22
2-BOB. BUXGALTERIYA BALANSI MODDALARI, ULARNING TAHLILI VA O‘ZARO BOG‘LIQLIGI		24
2.1 Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya balansining tasniflanishi va uning amaliyotda qo‘llanilishi		24
2.2 Buxgalteriya balansi moddalarining turkumlanishi va ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta’siri tahlili.....		31
2-bob bo‘yicha xulosa.....		38
3-BOB. “BUXGALTERIYA BALANSI, UNING TUZILISHI VA MAZMUNI” MAVZUSINI O‘QITISHDA		40
MODELLASHTIRUVCHI O‘YIN METODINI QO‘LLASH		
3.1 “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusini o‘rganishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llashning ahamiyati.....		40
3.2 “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusini o‘rganishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llab dars o‘tish.....		46
3-bob bo‘yicha xulosa.....		65
XULOSA VA TAKLIFLAR		66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI		69
ILOVALAR		72

**“Ilm-u fan shunday bir sohaki, qarib qolish,
keksayish, safdan chiqib qolish kabi
holatlar uning tabiatiga begonadir”**

Islom Karimov.

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin ilgari iqtisodiy tizim o‘rniga jahon standartlariga mos demokratik huquqiy davlatni barpo etish modeli tanlab olindi. Shuning uchun ham o‘tish davrida huquqiy asoslarni shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasi qo‘yildi. Bugungi kunga kelib xususiy mulkka asoslangan mulkchilik shaklini isloh qilish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyot negizini yaratish masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilindi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, jahon mamlakatlari bilan har sohada raqobatlasha oladigan darajaga yetkazish eng avvalo har birimizning eng oliy maqsadimiz bo‘lmog‘i lozim. Shunday ekan tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a’zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”.¹

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Avval boshdanoq biz o‘zimiz uchun muhim saboq chiqarib oldik – zarur huquqiy omilni shakllantirmasdan turib, tegishli qonunlar va me’yoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini, islohotlar ortga chekinmasligining kafolatini amalda yaratib bo‘lmaydi”.²

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza,2017-y. 14-yanvar T.:O‘zbekiston, 2017-104 b.

² Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz, 8-jild. T.:O‘zbekiston, 2000.-76 b

O‘zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar potensialini iqtisodiy ta’lim va tarbiyasiga katta ahamiyat berilgan. Bugungi kunda talaba-yoshlar berilayotgan iqtisodiy bilimlarni egallash bilangina emas, balki ularda iqtisodiy fikrlash tarzining shakllanishi va bozor iqtisodiyoti sharoitida ulardan foydalana olish, bozor iqtisodiyoti modellarini tushunish, bozor aloqalari va talablarini anglash bilan o‘rganib borishi lozimdir.

Xususan, buxgalteriya hisobining ahamiyati sifatida xo‘jalik yurituvchi subektlarda hisob tizimining naqadar to‘g‘ri yuritilishi, xo‘jalikning iqtisodiy moliyaviy faoliyatini o‘rganish va uning holatiga xolisona baho berish, shuningdek iqtisodiy ko‘rsatkichlarning samaradorligini aniqlash hamda nazoratini o‘rganish bugungi kunda talaba yoshlarga muhim dastur vazifasini o‘taydi.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq mamlakatimiz buxgalteriya tizimining yanada rivojlanishi, xalqaro andozalarga moslashtirilishi va shu asnoda O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi milliy standartlari”ning yaratilishi va amaliyotga keng joriy etilishini ta’kidlash lozim.

Ammo, buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni yuritish bo‘yicha huquqiy-me‘yorlar va standartlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya balansini tuzish, uni yuritish va ba’zi bir balans moddalarida sodir bo‘luvchi muomalalar bo‘yicha muammolarning mavjudligi buxgalteriya tizimida hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi.

“Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusida dars o‘tishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llab dars jarayonini tashkil etish va rivojlantirish mavzuning dolzarbligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti. Mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yoshlar iqtisodiy bilimlarni oson hamda mukammal o‘zlashtirishlari uchun “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusida dars o‘tishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llash, dars jarayonini tashkil etish va o‘rganish.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot predmeti. Oddiy an’anaviy usullardan yangicha ta’lim texnologiyalariga o‘tilgan holda iqtisodiy ta’lim

muassasalarida “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusida dars o‘tishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llashning shakl va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusida dars o‘tishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llab dars jarayonini tashkil etish hamda talaba–yoshlarda malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish. Modellashtiruvchi amaliy o‘yinlarni ta’lim tizimiga keng joriy etish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.

- buxgalteriya balansi to‘g‘risida tushunchalarni shakllantirish;
- xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida balansda sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar va ularning buxgalteriyadagi ahamiyatini o‘rganish;

-“Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusida dars o‘tishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llab dars o‘tishning samaradorligini oshirish.

- Buxgalteriya balansi moddalarining turkumlanishi va ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta’siri tahlili;

- mustaqil ishlashni takomillashtirish, tadqiq etish, mavzu xususiyatiga ko‘ra o‘yinlarni tanlash mezonlarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, buxgalteriya tizimida balansning nechog‘lik muhimligi va qay darajada o‘z o‘rniga ega ekanligini bilishga yo‘l ochadi va u haqida yyetarlicha nazariy bilimlar beradi. Shuningdek, amaliy jihatdan yondashadigan bo‘lsak bitiruv malakaviy ishida yoritilgan masalalar va tahliliy natijalar buxgalteriya balansi va uning tuzilishini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus kurslar uchun amaliy manba bo‘la oladi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, oltita paragraf, har bir bobga qisqacha xulosa, umumiy xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

1-BOB. “BUXGALTERIYA BALANSI, UNING TUZILISHI VA MAZMUNI” MAVZUSINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibi va tuzilishining mohiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriyaning o‘rni va vazifasi aniq qilib belgilab olingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi 24 moddadan iborat Qonuni buxgalteriya hisobining uchta asosiy vazifasini belgilab berdi:

1. Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘risidagi to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish;

2. Samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish;

3. Moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Mamlakatimizda amal qilinayotgan buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ma’lumotlar jamlanma holida va pul ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lum sanaga taqdim etilishi kerak. Ushbu ma’lumotlardan xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘lari tarkibi va ularning manbasi o‘rganish uchun ma’lum iqtisodiy ma’noda guruhlash zarur. Bu jarayon buxgalteriya balansini tuzish deb ataladi.

Balans so‘zi ikkita lotin so‘zlaridan iborat bo‘lib, "bis"-ikki karra (marta) va "banx"-tarozi pallasini so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, tom ma’noda «ikki palla» degan ma’noni anglatadi va tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansi - xo‘jalik mablag‘larini ularning turlari va tashkil topish manbalari bo‘yicha muayyan bir davrga pulda ifodalaniib, umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhlash usulidir. U buxgalteriya hisobi uslubiyatining asosiy usullaridan biri hisobladi. Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mablag‘lar turlari va ularning manbalarini ajratib ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘i bilan qabul qilingan buxgalteriya balansi ikki qismdan iborat bo‘lgan jadval shaklida tuzilgan.

Buxgalteriya balansi xo‘jalik yurituvchi subyektning xo‘jalik mablag‘larini ma’lum bir sanaga tavsiflab, uning o‘tgan davrdagi barcha faoliyat natijasini qanday holatga olib kelganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, balans xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘larining turlari va ularning manbalari haqidagi muhim axborotga ega bo‘lgan xo‘jalik yuritish subyektlari ishining yakunlari to‘g‘risidagi hisobotdir.

Buxgalteriya balansi, ma’lum sanaga tuziladi va xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ma’lum davrdagi holatini o‘zida mujassamlashtiradi.

Uning chap tomonida mablag‘lar turlari va ularning joylanishi keltiriladi va u aktiv qism deb nomlanadi, passiv qism deb nomlanadigan o‘ng tomonida mablag‘lar manbalari va ularning qanday maqsadlarga atalganligi ko‘rsatiladi.

Aktiv qism - asosiy va aylanma mablag‘larning holatini ko‘rsatib, moliyaviy xo‘jalik jarayonini yuritish vazifasini bajarishda bu mulklardan foydalanadi. Mulk to‘plangan moliyaviy hamda davlat tashkilotlari mablag‘i, hususiy shaxslar jamg‘armasi, hissador va ta‘sischilarning ulushi, bank krediti, chet ellik sarmoyadorlar va hakoza mablag‘lar evaziga sotib olinadi. Ayrim hollarda ta‘sischilar asosiy vosita va moddiy boyliklarning o‘zini berishi ham mumkin. Asosiy va aylanma mablag‘lar ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz yuritishga xizmat qiladi. O‘z-o‘zidan bu faoliyat davomida o‘zgaradi, harakatda bo‘ladi va tarkibi yanada yangilanadi.

“Aktiv” so‘zi lotin tilidan tarjima qilingan bo‘lib, “faol”, “harakatda” degan ma’noni anglatadi.

Aktivlar - sub’ekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir. Aktivlar oldingi amalga oshirilgan muomlalar natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektga kelib tushgan va kelajakda foyda keltiradigan iqtisodiy resurslardir.

Aktivlar uch xil xususiyatga ega bo‘lishi kerak:

- a) kelajakdagi iqtisodiy nafni o‘zida mujassamlanishi, bevosita va bilvosita pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarini ko‘paytirish imkoniyati;
- b) bu iqtisodiy naflarni nazorat qilish qobiliyatini mujassamlash;

v) oldingi bitimlar yoki boshqa voqealarning natijasi bo'lishi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt, tashkilot va muassasalarda aktivlar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: uzoq muddatli aktivlar, joriy (aylanma) aktivlar.³

Xo'jalik yurituvchi subyekt balansi aktiv qismi ikki bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

I bo'lim. "Uzoq muddatli aktivlar"

II bo'lim. "Joriy aktivlar"

Balansning 1-bo'limi "Uzoq muddatli aktivlar" deb nomlanib, nomoddiy aktiv va asosiy vositalar boshlang'ich, eskirish va qoldiq qiymatda, o'rnatiladigan asbob-uskunalar, tugallanmagan kapital va uzoq muddatli qo'yilma ta'sislar bilan hisob-kitoblar va boshqa oborotdan tashqari bo'lgan aktivlardan iboratdir.

Uzoq muddatli aktivlar - uzoq muomala muddatiga ega bo'lgan (12 oydan ortiq) va investitsiyalash maqsadida saqlab turilgan hamda hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida sotilishi mumkin bo'lmagan aktivlardir. Ularning tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar, kapital quyilmalar va boshqa uzoq muddatli aktivlar kiradi.

Nomoddiy aktivlar korxonaga daromad keltirish yoki uning ishlab chiqarishini yuritishga shart-sharoit yaratuvchi, natural buyum shakliga ega bo'lgan mulkiy huquqiy qiymatlar, patentlar, mualliflik huquqi, savdo markalari, «Nou-xau», yerdan, suvdan va boshqa tabiiy boyliklardan, bino, inshoot va kurilmalardan foydalanish xukuklaridan iborat buladi. Shuningdek, bu bandda hissadorlik jamiyati boshqaruvi kelishuviga muvofiq Nizom jamg'armasini tashkil qilishi uchun ajratgan nomoddiy aktivlari ham aks etadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida korxonada manfaati uchun kelgusida ishlatilishi mo'ljallangan ilg'or texnologiyadan foydalanish huquqi, ularni olib kelish va ishlatishga tayyorlash harajatlari qo'shilgan holda aks etadi. Bu holat qo'shma korxonalaridagi O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxs bilan xorijiy sarmoyadorlar hamkorligi tufayli ko'proq vujudga keladi.

³ O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 1996 y. 30-avgust.

Ishlab chiqarish va xizmat binolari, inshootlar va uskunalardan foydalanish xarajatlari ijara haqi summasiga teng bo‘ladi. Umuman nomoddiy aktivlar boshlang‘ich bahoda ko‘rsatiladi, xizmat muddatiga qarab uning eskirishi hisoblanadi va balans jamlanganda qoldiq bahodagi summa qo‘shiladi.

«Asosiy vositalar» bandida balans tuzilgan vaqtgacha bo‘lgan 0100 schyotlari qoldig‘i ko‘rsatiladi. Bu hisobning debetida yil davomida kiritilgan, kreditiga esa yil davomida chiqib ketganlari aks ettiriladi. Asosiy vositalar bo‘yicha eskirish hisoblanadi, buni aniqlash murakkab. Shuning uchun to‘liq tiklash uchun hisoblangan amortizatsiya summasiga eskirish teng deb shartli qabul qilinadi. Amortizatsiyani hisoblash maxsus me‘yorlar asosida (boshlang‘ich yoki tiklash bahosiga nisbatan foiz hisobida) aniqlanadi. Me‘yorlar har bir asosiy vosita turlari bo‘yicha differentsiyalashgan, lekin amortizatsiyani hisoblashda asosiy vositalarning xizmat muddati tugaguncha, boshlang‘ich yoki qoldiq qiymatini eskirish sifatida yangi yaratilayotgan qiymatga o‘tkazishi lozim. Hisoblashning tezlashgan me‘yorini qo‘llash mumkin, faqat bu tartib faol qatnashuvchi (mashina, uskuna va transport) vositalarga taaluqlidir.

Asosiy vositalarning eskirishi 0200 schyotlarida hisoblangach, shunga qarab amortizatsiyalashgan yoki qoldiq bahodagi asosiy vositalar hajmi aniqlanadi, ya’ni boshlang‘ich bahodan (0100 schyot) eskirish summa (0200 schyot) ayirib topiladi. Shu bandda uzoq muddatga ijara olingan, ishlatilishi yoki kontservatsiyada turganligidan qat’iy nazar balansidagi asosiy vositalar qiymati aks etadi.

Balansning qolgan qismida kapital qo‘yilmalar, shu’ba korxonalaridagi aksiyalar, sho‘ba korxonalariga berilgan qarzlilar, uyushma korxonalaridagi aksiyalar, uyushma korxonalariga berilgan qarzlilar, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar ko‘rsatiladi. Bu xo‘jalik yoki pudrat usulida bajarilayotgan tugallanmagan kapital qurilish asosiy poda tuzish xarajatlari, moddiy boyliklar qidirish ishlari uchun sarflar va shu maqsadlarga ajratiladigan mablag‘larni ko‘rsatadi. Kapital xarajatlarni korxonalar o‘z mablag‘i yoki uzoq muddatli kredit evaziga bajarishi mumkin.

Balans aktivining 2-bo‘limi “Joriy aktivlar” deb nomlanib, asosiy o‘rinni “Tovar-moddiy zahiralari” bandi egallaydi. Chunki, bu bandda korxonada ishlab chiqarishni yuritishga zarur bo‘lgan buyumlar jamlanadi.

Joriy (aylanma) aktivlar - asosan qayta, takroriy sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan va undan hisobot kunidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan aktivlarga aytiladi.

Ular tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulot va tovarlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar hamda joriy debitorlik qarzlari kiritiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘lari har yil manbalar hisobiga shakllanadi.

Masalan, hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lariga ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom-ashyo va materiallar sotib olish mumkin. Xo‘jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqarish faoliyati natijasida materiallar tayyor mahsulot ko‘rinishini oladi. Qolaversa, tayyor mahsulot ni sotish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektga yana pul mablag‘lari kirib keladi.

Shuningdek, unda xom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va detallar, urug‘, yem-xashak, yoqilg‘i, idishlar va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, qayta ishlash uchun chetga berilgan materiallarning haqiqiy tannarxi (sotib olish va olib kelish bilan bog‘liq xarajatlar) ko‘rsatiladi. Ushbu bo‘limning yangi xususiyati shundaki, arzon baholi va tez eskiruvchan buyumlar boshlang‘ich, eskirish va qoldiq baholarda keltiriladi hamda balans jamlanganda faqat qoldiq bahodagi, ya‘ni yaroqli qiymati qo‘shiladi.

Pul mablag‘lari, valyuta mablag‘lar, g‘aznadagi pullar, qisqa muddatli qo‘yilmalar bandlarida material shaklida bo‘lmagan boyliklar aks ettiriladi. Bu mablag‘larning hajmi korxonaning ixtisoslashganligi, bozor munosabatlarida ta‘minotning tashkillashtirilishi va boshqa ko‘pgina sabablarga bog‘liq. Masalan, sanoatda pul salmog‘i yuqori bo‘lsa, savdo tashkilotlarida esa debitorlar bilan hisob-kitoblar ko‘p bo‘lishi mumkin, chunki bu tovarlarni sotishga borib qadaladi. Eng avvalo debitorlar bilan hisob-kitoblar ko‘rsatiladi, chunki hozirgi sharoitda bu

masalani tahlil qilib turish zarurdir. Debitorlar boshqa yuridik (korxonalar, tashkilot va muassasa) va jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan qarzdorlaridir. Qarzdorlarni shartli ikki guruhga ajratish mumkin: odatdagi va asoslanmagan. Odatdagi qarzlarga ishlab chiqarish, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatishga avvaldan qarz berish, da'vo qilish va shu kabi munosabatlar tufayli yuzaga kelgan, ammo to'lash muddati hali yetmaganlari kiradi. Asoslanmagan qarzlarning faoliyat davomidagi kamchiliklar, tovar va moddiy boyliklarning kamomadi, o'g'rilik va har xil yo'qolishlar hisobiga paydo bo'ladi. Bu holat doimo nazoratda bo'lib, muntazam tahlil etib borishni talab qiladi. Umuman, debitor qarzlarning mavjudligi moliyaviy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan veksellar bo'yicha, sho'ba korxonalarini, byudjet, xodimlar va boshqa debitorlar bilan bo'lgan munosabatlar hususida balans tuzilgan davrdagi holat ko'rsatiladi. II bo'lim aktivida mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar ham keltiriladi.

Mablag'larni o'rganishda pul mablag'larini tahlili alohida o'rinni egallaydi. Bunday mablag'lar hisob-kitob, valyuta schyoti va g'aznadagi pullar tushuniladi. Mazkur mablag'lar to'lov majburiyatlarini bajarilishida birlamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valyuta schyotidagi mablag'lar mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, byudjet, bank, sug'urta va boshqalar bilan bo'ladigan aloqa manbaidir. Shu tufayli bu masala alohida o'rganilishi lozim. Shu yerda o'tgan va joriy yildagi ko'rilgan zararlar ham aks ettirilishi kerak.

Shunday qilib, balansning aktiv qismi juda aniq va ularning tarkibi hech qanday noaniqliklar tug'dirmaydi. Lekin balansning passiv qismi biroz murakkab tuzilgan bo'lib, ba'zi moddalar mohiyatini anglash unchalik oson kechmaydi. Balansning passiv qismi moddalari mohiyatini aniq bilish uchun ularning nima maqsadga mo'ljallanganligini bilish zarur.

“Passiv” so‘zi ham lotin tilidan olingan bo‘lib, “nafaol”, “harakatsiz”, “holis turmoq” ma’nolarini anglatadi. Tarixan bu atama dastlab faqat qarzga olingan mablag‘larga nisbatan, ya’ni uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan qo‘llanar edi. Bu bilan mulk egasi qarzga olingan mablag‘larga bo‘lgan munosabatda o‘zboshimchalikdan o‘zini tutishi kerakligi ta’kidlangan edi. Keyinchalik “passiv” atamasi manbalarning boshqa moddalariga ham tarqatilgan bo‘lib, faqat xo‘jalik yurituvchi subyekt majburiyatlarini tavsiflabgina emas, mablag‘lar turlarini qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligini ham tavsiflash uchun ishlatiladigan bo‘ldi.

Balansning o‘ng tomoni passiv qism hisoblanib, u ham aktiv singari ikkita bo‘limdan iborat:

I bo‘lim. " O‘z mablag‘larining manbalari "

II bo‘lim. "Majburiyatlar"

Ya’ni balans passivining 1-bo‘limi “O‘z mablag‘lari manbalari” deb nomlanib, bunda ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to‘lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari aks ettiriladi. Passivning «Ustav kapitali» bandida xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag‘lari ko‘rsatiladi. Hissadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashchining qo‘shgan hissasi ustav fondida ko‘rsatiladi. Dividend sifatida taqsimlanadigan sof foyda hajmi ham qo‘shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Demak, ustav fondi bozor iqtisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o‘ziga tegishli mablag‘i va aksionerlarning qo‘shgan hissasidan iborat bo‘ladi. Har bir qatnashchi shaxsiy hissasi qatnashchilar qo‘shgan badallar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Qo‘shilgan kapital, rezerv kapital bandlarida korxonaning boyliklarini qayta baholanishidan, olgan foydasidan tashkil etilgan rezervlardan, qo‘shimcha aksiyalar chiqarish natijalaridan ko‘paygan xususiy manbalar ko‘rsatiladi.

Passiv 1-bo'limiga taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ham kiritiladi. Bu bandning summasi korxonani olgan foydasi miqdoriga va uning taqsimlanishiga bog'liqdir. Korxonada o'z oldidagi foydadan to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarini bajarib bo'lgandan so'ng, qolgan qoldiq kelgusida rezerv sifatida foydalanilishini ko'zlanib qoldiriladi. Taqsimlanmagan foyda bandi o'tgan yillardagi foydadan qolgan summalarni ham ifodalaydi. Balansda korxonaning o'z mablag'lari manbai qancha ko'p ulushni egallasa, shunchalik moliyaviy ahvol ishonchli bo'ladi.

Balans passivining ikkinchi bo'limi "Majburiyatlar" deb nomlanib, unda korxonaning uzoq muddatli va joriy majburiyatlari aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzarlar va shu kabi uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi. Bank kreditlari ishlab chiqarishni texnik jihozlash, asosiy vositalar sotib olish va ko'rish, asosiy poda tashkil qilish va boshqa ko'pgina istiqbolli loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida olinishi mumkin. Qarzarlar bandida esa boshqa korxonalar (bankdan tashqari) olingan qarzar summalari ko'rsatiladi. Bu bandlarni to'ldirish uchun zarur ma'lumotlar «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» va «Uzoq muddatli qarzarlar» schyotlar qoldig'idan olinadi.

2-bo'lim passivida qisqa muddatli bank kreditlari va qarzarlarini, korxonada ishchi-xizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun, berilgan veksellar, mehnatga haq to'lash bo'yicha, ijtimoiy himoyalash, sug'urta, ta'minot, mulkiy va shaxsiy sug'urta, byudjet bilan, undan tashqari to'lovlar, sho'ba korxonalar va boshqalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ko'rsatiladi. Bulardan tashqari xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, ko'zda tutilgan daromadlar, xarajatlar va to'lovlar zahirasi, dargumon qarzarlar bo'yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo'limda aks ettiriladi. Shu bo'lim passivida juda ko'p buxgalteriya hisobining schyotlarining kredit qoldig'i keltiriladi. Korxonada balansini o'rganishda asosiy e'tibor yil boshida o'tgan davrda mulk va mablag'larning qanchalik o'zgarganligi hamda aktivdagi har bir band passivdagi manbalar bilan qanchalik ta'minlanganligiga qaratiladi.

Majburiyatlarni uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak:

- a) aktivlarni chiqib ketishi yoki xizmat ko'rsatish yo'li bilan to'lashni vujudga keltiradigan mavjud doimiy majburiyatni o'zida majassamlashtirishi;
- b) subyekt uchun majburiyatning bajarilishi shartligi va qariyb muqarrarligi;
- v) oldingi bitim yoki voqealar natijasi bo'lishi.

Buxgalteriya balansining asosiy xususiyatlaridan biri bu aktiv va passiv qismlari moddalari bo'yicha summaning bir-biriga o'zaro tengligidir. Bu tenglik xo'jalik yurituvchi subyekt balansining aktiv va passiv qismlarida bir xil hajmdagi mablag'larni har xil ko'rinishda, ya'ni aktiv tomonda mablag'lar turlari bo'yicha va passiv tomonda esa manbalar bo'yicha aks ettirilganligini anglatadi. Balansning nomi ham shunga asoslangan, chunki «balans» so'zi tenglik, barobarlikni anglatadi. Shuning uchun ham balans aktivi va passivi «balans» so'zi bilan belgilanadi.

Buxgalteriya balansining chizma ko'rinishi quyidagi shaklga ega. Uning aktivi va passivida ham balans moddalari ikkiga bo'lib ko'rsatiladi:

1-jadval

Buxgalteriya balansi⁴

Aktiv		Passiv	
Xo'jalik mablag'lari	Summa	Mablag'lar manbalari	Summa
I bo'lim Uzoq muddatli aktivlar	45926	I bo'lim O'z mablag'larining manbalari	65869
II bo'lim. Joriy aktivlar	56788	II bo'lim. Majburiyatlar	36845
Balans	102714	Balans	102714

Balans ko'rsatkichlaridan quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlab olish mumkin. Aktivlar aylanma va uzoq muddatli kapitallari yig'indisiga teng. Xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari aktivlaridan majburiyatlarini ayirganiga teng.

⁴ Xolbekov.R.O. "Buxgalteriya hisobi nazriyasi" Darslik.-T.: CHo'lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi -2011.-56 b.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasida ro‘yhatga olingan barcha xo‘jalik sub’ektlari yuridik shaxslar, ularning shu’ba xo‘jalik yurituvchi subyektlari, filiallari, vakolatxonalar va boshqa tarkib bo‘linmalari buxgalteriya hisobi sub’ektlari hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuniga binoan maxsus talablar bilan belgilangan va ularga asoslangan holda hisob yuritilishi hamda hisobot tuzilishi lozim bo‘lgan buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- ikki yoqlama yozuv;
- uzluksizlik;
- xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi;
- aniqlik;
- hisoblash;
- ehtiyotkorlik;
- mazmunning shakldan ustunligi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektda buxgalteriya hisobini tegishli tashkil etish uchun xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi hamda har bir hisobvaraqlar tavsiflangan va ularga doir hisobvaraqlarning namunaviy korrespondensiyasi berilgan rejani qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomadan to‘g‘ri foydalanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi milliy andozalarini amalga tadbiiq etish va bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida buxgalteriya hisobvaraqlarining yangi rejasi ishlab chiqildi. “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” nomli 21-son BHMS O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasiga binoan ishlab chiqilgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi asosida

xo‘jalik muomalalari buxgalteriya hisobvaraqlari ishchi rejasini tuzadilar va u xo‘jalik yurituvchi sub’ektning hisob siyosatida aks ettiriladi.

Hisobvaraqlar rejasi - buxgalteriya hisobi bo‘yicha hisobvaraqlarning ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra bir tizimga solingan ro‘yxatidir.⁵

Qisqasini aytganimizda qaysi faoliyat turi bo‘lmasin bevosita buxgalteriya hisobini yuritadi. Bu orqali u o‘zining qay darajada faoliyat olib borishini tahlil qiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, buxgalteriya hisobi bevosita hujjatlarga asoslangan holda tashkil etiladi. Faoliyat qay darajada olib borilayotganini biz bevosita hujjatlar asosida bilib olamiz albatta. Shunday ekan uni to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Balans ma’lumotlarida ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo‘lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalari o‘z aksini topadi. Bu ko‘rsatkichlar mol-mulk hajmi, tarkibi va qiymatini qay darajadiligini ifodalaydi. Shuningdek, mol-mulkning moliyalashtirish manbalari, ya’ni o‘ziga tegishli manbalar va chetdan qarzga jalb qilingan manbalar holati ham passivda keltirilgan. Balansdagi har bir band va bo‘lim korxonalarining moliyaviy holatiga bog‘liq, shuning uchun ham uni chuqur o‘rganish lozim.

⁵ “Buxgalteriya hisobi milliy standartlari” 21-BHMS

1.2. Xo‘jalik operatsiyalari ta’sirida balansda sodir bo‘luvchi o‘zgarishlar va ularning buxgalteriyadagi ahamiyati

Yuqorida qayd etganimizdek buxgalteriya balansi har oying 1-sanasiga tuziladi. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida ko‘plab xo‘jalik operatsiyalarini sodir etadi. Bu xo‘jalik operatsiyalarining har biri sodir bo‘lganda balansga ta’sir qilib, balans moddalari summalarini o‘zgartirib yuboradi, ammo balans tengligi saqlanadi. Xo‘jalik operatsiyalari balansga faqat to‘rt xil yo‘l bilan ta’sir etadi.

1-tur o‘zgarish. Shunday xo‘jalik operatsiyalari borki, ular balansning faqat aktiviga ta’sir etadi. Bunda balansning aktivida bir modda summasi ko‘payib, ikkinchi modda summasi ayni shu summaga kamayadi, lekin balansning umumiy summasi o‘zgarmaydi.

2-tur o‘zgarish. Shunday xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘ladiki, ular balansning faqat passiviga ta’sir qilib, passivda bir modda summasi ko‘payib, ikkinchi modda summasi ayni shu summaga kamayadi. Bunda ham balansning umumiy summasi o‘zgarmaydi.

3-tur o‘zgarish. Shunday xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘ladiki, ular balansning aktiviga va passiviga ham ta’sir etib, ular summasini ko‘paytirib yuboradi.

4-tur o‘zgarish. Shunday xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘ladiki, ular balansning aktiviga ham passiviga ham ta’sir etib, ular summasini kamaytirib yuboradi. Balansga ta’sir qiladigan bunday o‘zgarishlarni misollarda keltiramiz.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda xo‘jalik mablag‘lari tarkibi va hajmi sodir bo‘layotgan operatsiyalar ta’sirida uzluksiz o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarishlar balansga, albatta, ta’sir etadi.

Ushbu operatsiyalar balansda qanday o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini quyidagi misol orqali ko‘rib o‘tamiz.

Faraz qilaylik, hisobot davrining boshiga xo‘jalik yurituvchi subyekt balansi quyidagicha bo‘lgan:

Balansning ko‘rinishi⁶

Aktiv		Passiv	
Mablag‘lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag‘lar manbayi va ularning taqsimlanishi	Summa
Asosiy vositalar	550000	Ustav kapitali	500000
Xom-ashyo va materiallar	200000	Foyda	145000
Kassa	30600	Bank kreditlari	128000
Hisob-kitob schyoti	19400	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	27000
JAMI	800000	JAMI	800000

Misolni ko‘rib chiqayotganda xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘lari xo‘jalik operatsiyalarida qatnashayotganda, o‘zgarmasdan qolmasligiga e‘tibor beramiz; keyinchalik ular yangi xususiyatga ega bo‘ladilar yoki bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tadilar. Shuning uchun davr boshiga ko‘rsatilgan dastlabki holati katta o‘zgarishlarga duch keladi. Lekin bunda mablag‘lar turining umumiy summasi bilan ularning manbalarining umumiy qiymati o‘rtasidagi tenglik hech qachon buzilmaydi.

Birinchi operatsiya. Kassadan xo‘jalik yurituvchi subyekt xodimlariga hisobdorlik shartlari bilan 30500 so‘m berildi. Pul berilgandan keyin «Kassa» moddasidagi summa 30500 so‘mga kamayadi va 100 (30600-30500) so‘mni tashkil qiladi. Shu bilan bir vaqtda pullarning hisobdorlik shartlari bilan berilishi hisobdor shaxsning ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektga qarzining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Demak, balans aktivida hisobdor shaxsning xo‘jalik yurituvchi subyektga bo‘lgan 30500 so‘mlik qarzi aks ettiriladigan «Debitorlar» moddasi paydo bo‘ladi. Bunda ushbu operatsiya ta‘sir etgan har ikkala balans moddasi ham aktivdir. Mazkur xodisadan mablag‘lar aktivining bir moddasidan ikkinchisiga o‘tipshgina sodir bo‘ldi. Aktivning jami o‘zgarmaydi va aktiv hamda passiv summalar o‘rtasidagi tenglik saqlanib qoladi. Birinchi operatsiyadan keyin balans quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

⁶ Xolbekov.R.O. “Buxgalteriya hisobi nazriyasi” Darslik.-T.:CHO‘lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2011.-66 b.

Balans (birinchi operatsiyadan keyin)⁷

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	550000	Ustav kapitali	500000
Xom ashyo va materiallar	200000	Foyda	145000
Kassa	30600	Bank kreditlari	128000
Hisob-kitob schyoti	19400	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	27000
Debitorlar	30500		
JAMI	800000	JAMI	800000

Ikkinchi operatsiya. Sof foydaning bir qismi (145000 so‘m) hisobidan xo‘jalik yurituvchi subyekt ishining natijalarini yakunlashda qabul qilingan qarorga binoan zaxira kapitali tashkil etilgan.

Mazkur operatsiya xo‘jalik yurituvchi subyektning taqsimlanmagan foydasini 50000 so‘mga kamaytiradi, lekin balansda yangi modda paydo bo‘ladi: xuddi shu summaga zaxira kapitali ko‘payadi. Demak, endi foyda miqdori 95000 (145000-50000) so‘mni, zaxira fondi esa 50000 so‘mni tashkil qiladi.

Ikkinchi operatsiya natijasida faqat mablag‘lar manbaio‘zgaradi. Bir manba (foyda)ning kamayishi hisobiga boshqa (zaxira fondi) manba paydo bo‘ladi. Bu operatsiya faqat passiv moddalarga tegishlidir.

Balans (ikkinchi operatsiyadan keyin)⁸

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	550000	Ustav kapitali	500000
Xom ashyo va materiallar	200000	Zaxira kapitali	50000
Kassa	100	Foyda	95000
Hisob-kitob schyoti	19400	Bank kreditlari	128000
Debitorlar	30500	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	27000
JAMI	800000	JAMI	800000

⁷ Xolbekov.R.O. "Buxgalteriya hisobi nazriyasi" Darslik.-T.:CHO‘lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2011.-68 b.

⁸ Xolbekov.R.O. "Buxgalteriya hisobi nazriyasi" Darslik.-T.:CHO‘lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2011.-70 b.

Uchinchi operatsiya. Mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan 45000 soʻmlik materiallar xoʻjalik yurituvchi subyektga kelib tushdi, lekin puli toʻlanmadi. Mazkur operatsiya, birinchidan, materiallarning miqdori koʻpayishiga olib keladi. Demak, balansning «Xom ashyo va materiallar» moddasi 45000 soʻmga oshadi. Ikkinchidan, materiallar mol yetkazib beruvchilardan sotib olinib, puli hali toʻlanmagani uchun, xoʻjalik yurituvchi subyektning mol yetkazib beruvchilar oldida qarzi paydo boʻladi. Balansda bu «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar» moddasi boʻyicha aks ettirilib, uning summasi ham 45000 soʻmga oshadi va 72000 soʻmga teng boʻladi.

Balansda aks ettirilish tavsifi boʻyicha ushbu operatsiya oldingisidan farq qiladi. U bir vaqtning oʻzida aktiv va passivga tegishlidir. Lekin uning aktivda ham, passivda ham yuzaga keltirgan oʻzgarishlari bir xil summada ifodalanadi va bir tomonga yoʻnaltirilgandir. Demak, aktiv va passivning jami summalari bir xilda oʻzgaradi, ularning oʻrtasidagi tenglik saqlanib qoladi.

5-jadval

Balans (uchinchi operatsiyadan keyin)⁹

Aktiv		Passiv	
Mablagʻlar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablagʻlar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	550000	Ustav kapitali	500000
Xom ashyo va materiallar	245000	Zaxira kapitali	50000
Kassa	100	Foyda	95000
Hisob-kitob schyoti	19400	Bank kreditlari	128000
Debitorlar	30500	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	72000
JAMI	845000	JAMI	845000

Toʻrtinchi operatsiya. Hisob-kitob schyotidan bankka kredit boʻyicha qarzni uzish uchun 18000 soʻm oʻtkazilgan. Bu operatsiya hisob-kitob schyotidagi pul mablagʻlarining kamayishiga olib keladi va bir vaqtning oʻzida xoʻjalik yurituvchi subyektning kreditlar boʻyicha qarzining qisqarishiga olib keladi. Demak, balansda

⁹ Xolbekov.R.O. “Buxgalteriya hisobi nazriyasi” Darslik.-T.:CHOʻlpon nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2011.-71 b.

«Hisob-kitob» schyoti bo'yicha summa 1400 (19400-18000) so'mgacha kamayadi va «Bank kreditlari» passiv moddasi bo'yicha 110000 (128000 - 18000) gacha kamayadi, ya'ni bu modda passiv moddasidan chiqarib tashlanadi.

To'rtinchi operatsiya balans yakunlarini bir miqdordagi summaga kamaytirdi. Shuning uchun balans aktivi va passivi yakuniy summalari o'rtasidagi tenglik bu operatsiyadan keyin ham saqlanib qoladi.

Bunga o'xshagan operatsiyalar xo'jalik faoliyatida ko'plab uchraydi. Keltirilgan to'rtta operatsiyalar ularni balansda aks ettirishning sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarni o'z ichiga oladi.

6-jadval


Balans (to'rtinchi operatsiyadan keyin)¹⁰

Aktiv		Passiv	
Mablag'lar turi va ularning joylanishi	Summa	Mablag'lar manbai va ularning tayinlanishi	Summa
Asosiy vositalar	550000	Ustav kapitali	500000
Xom ashyo va materiallar	245000	Zaxira kapitali	50000
Kassa	100	Foyda	95000
Hisob-kitob schyoti	1400	Bank kreditlari	110000
Debitorlar	30500	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	72000
JAMI	827000	JAMI	827000

Boshida balansning faqat aktiviga yoki passiviga ta'sir qiladigan voqealar (birinchi va ikkinchi operatsiyalar) ko'rsatilgan edi. Bunda balansning aktivi va passivini o'zgartirmaydigan summalarning faqat qayta guruhlantirilishi bo'lib o'tgan edi. Bu balans o'zgarishlarining birinchi va ikkinchi turlaridir. Boshqa operatsiyalar balansning aktiviga ham passiviga ham ta'sir etadi. Bunda har ikkala ta'sir qilinadigan moddalar ularning ko'payishi (uchinchi operatsiya) yoki kamayishini (to'rtinchi operatsiya) yuzaga keltirdi.

¹⁰ Xolbekov.R.O. "Buxgalteriya hisobi nazriyasi" Darslik.-T.:CHO'lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2011.-73 b

Aktiv		Passiv	
Ko'payish	Kamayish	Ko'payish	Kamayish



1-chizma. Balansdagi o'zgarishlarning turlari¹¹

Balansli o'zgarishlar turlarining mohiyatini aniqlash balans xususiyatlarini, ya'ni har qanday operatsiya uning, albatta, ikki moddasiga ta'sir etishini va hech qachon aktiv bilan passiv o'rtasidagi tenglikni buzmasligini tushunib olish uchun zarurdir. Operatsiyalarning iqtisodiy mazmunini o'rganishga ushbu guruhlashning hech qanday aloqasi yo'q.

1-bob bo'yicha xulosa

Birinchi bob bo'yicha xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, buxgalteriya balansi - xo'jalik mablag'larini ularning turlari va tashkil topish manbalari bo'yicha muayyan bir davrga pulda ifodalanib, umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhlash usulidir.

Buxgalteriya balansi xo'jalik yurituvchi subyektlar yillik moliyaviy hisobotining 1-shakli hisoblanib, xo'jalik yurituvchi subyektning aktivlari va passivlari haqida to'liq ma'lumotni beradi.

Shuning uchun balansning tuzilish shakli doimo takomillashtirilgan. Bu takomillashtirish quyidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi, balansning ham aktiv, ham passivi bo'yicha bo'limlari soni o'zgarib, korxonalar mablag'lari va ularning manbalari konsentratsiyalanib bordi.

Ikkinchi, balans bo'limlarining nomlari o'zgarib, yangi nomlarda

¹¹ Adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

mablag'lar va ularning manbalari mazmuni to'liqroq aks ettirila boshlandi.

Uchinchidan, korxonalar balanslarining o'zgarishida alohida ishlab chiqarish tarmoqlarining mablag'lari va ularni qoplovchi manbalarining xususiyatlari e'tiborga olingan.

To'rtinchidan, xalq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazilishi munosabati bilan korxonalar balansida bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan yo'nalishda takomillashtirilmoqda.

Beshinchidan, moliyaviy tahlil o'tkazishni yengillashtirish maqsadida brutto-balansdan netto-balansga o'tildi.

Oltinchidan, Respublikamiz jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashib borar ekan, mamlakatda buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil qilish xalqaro standartlarga o'tkazilayapti.

Buxgalteriya balansini tahlil qilishga tayyorlash uni tuzishning to'g'riligini va ayrim moddalarining aniqligini tekshirishni, balans ko'rsatkichlari bilan hisobotning boshqa shakllari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashni, uning ayrim ko'rsatkichlarini tartibga soluvchi summalardan "tozalash"ni va yirikroq pul o'lchamidagi summalarni yaxlitlashni nazarda tutadi.

2-BOB. BUXGALTERIYA BALANSI MODDALARI VA ULARNING TAHLILI

2.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya balansining tasniflanishi va uning amaliyotda qo‘llanilishi

Buxgalteriya hisobida balans muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yillik hisobot tarkibida unda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, chunki xalqaro andazalar talablariga yaqinlashdi va bozor munosabatlariga qaratildi. Balansning aktiv va passiv moddalarining mazmuni ichki hamda tashqi foydalanuvchilarga undan foydalanish imkoniyatini beradi. Ichki va tashqi qiziquvchilar uchun xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy barqarorligi, kreditor qarzlarning hajmi, bank kreditlari bo‘yicha qarzlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar zarur.

Balans—korxonalar mablag‘lari va qoplash manbalarining ma‘lum davrdagi holatini ko‘rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalqaro an‘anaviy talablar bo‘yicha yuritishga o‘z bo‘lsada yaqinlashtirilishi hamda 1997 yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansini bozor iqtisodiy sari qo‘yilgan dastlabki qadam bo‘lgan edi. Mazkur balans yillar davomida amaliyotda qo‘llanildi va uni takomillashtirish va xalqaro standartlarga yanada moslashtirish zaruriyati tug‘ildi. Shu sababli ham 2002 yilda yangi shchiotlarga asoslangan moliyaviy hisobot shakllari, jumladan, buxgalteriya balansini ham qabul qilindi. Bugungi kunda mazkur balans amalda keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘i bilan moliyaviy hisobotlarning yangi shakllari tasdiqlangan. Shunga ko‘ra buxgalteriya balansini 1-hisobot shakli hisoblanadi. (1-ilovaga qarang.)

Balans aktivida mazkur xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida mablag‘lar turi va ularning ma‘lum davrda aylanishidagi joylanishi keltiriladi. Masalan, aktivning birinchi moddasida dastlabki qiymatda berilgan «Nomoddiy aktivlar» xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida sezilarsiz aktivlarning qiymatini tavsiflaydi. Navbatdagi «Amortizatsiya» moddasi nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati qanchaga kamayganini ko‘rsatadi. «Qoldiq qiymat» moddasi nomoddiy

aktivlarning amortizatsiya summasini ayirib tashlangandan keyingi qolgan qiymatini aks ettiradi.

«Asosiy vositalar» dastlabki qiymat moddasida xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyoridagi mehnat vositalarining qiymatini ko‘rsatadi. Shuningdek, qayta tiklash qiymati - eskirish va asosiy vositalarning qoldiq qiymati va hokazolarni aks ettiradi. «Ishlab chiqarish zaxiralari» moddasi xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyoridagi «Xom-ashyo va materiallar», «Yordamchi materiallar», «Yoqilg‘i» va ombordagi boshqa ishlab chiqarish zaxiralarining qiymatini umumiy summada aks ettiradi. «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi xo‘jalik yurituvchi subyektning har xil sexlarida tayyorlanishi hali oxirigacha yetkazilmagan buyumlarga qilingan sarflar summalarini aks ettiradi. «Tayyor mahsulot» - bu mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektda tayyorlangan va sotish uchun mo‘ljallangan buyumlardir. «Kassa» va «Hisob-kitob schyoti» moddalarida muayyan davrda xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyoridagi pul mablag‘larining summasi ko‘rsatiladi. «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklao». «Boshqa debitooolik qarzlari» va hokazo moddalarida esa boshqa xo‘jalik yuritish subyektlarning ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektda undan sotib olingan mahsulot uchun («Xaridorlar») va boshqa operatsiyalar bo‘yicha («Boshqa debitorlar») qarzlari aks ettiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, aktiv moddalari juda aniq bo‘lib, ularning mazmuni ko‘p tushuntirishlarni talab qilmaydi. Passiv moddalari esa boshqachadir. Bu moddalardan ba’zilarining mohiyatini ularning qanday maqsadga tayinlanishiga qarab aniqlab olish doim ham oson bo‘lavermaydi. Passivdagi har bir moddaning mazmunini aniq ko‘z oldiga keltirish uchun passiv umuman nimani aks ettirishini yaxshi bilib olish lozim. Yuqorida aytilganidek, passiv aktivda ko‘rsatilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘larining manbaini aks ettiradi.

Passivning birinchi moddasi ustav kapitalidir. Uning summasi xo‘jalik yurituvchi subyektning yaratilish paytida shakllantirilgan mablag‘lar miqdoridan iborat. Bunda xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z mablag‘larining umumiy summasi ko‘rsatiladi va bu manbadan berilgan mablag‘larning o‘zi balans

aktivining moddalarida aniq gavdalantirilgan bo‘ladi.

«Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» moddasida xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat ko‘rsatishi boshidan boshlab hisobot davrigacha bo‘lgan vaqt ichida jamg‘arilgan foyda summasini aks ettiradi.

«Uzoq muddatli kreditlar» moddasida xo‘jalik yurituvchi subyektning bankka bo‘lgan uzoq muddatli qarzi aks ettiriladi. Bu moddada ko‘rsatilgan summa xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan olingan uzoq muddatli bank kreditini aks ettirib, belgilangan davrda qaytarilishi kerak. Mazkur modda xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida hozircha bo‘lgan pul mablag‘larining miqdorini ko‘rsatadi, deb o‘ylash noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki bank tomonidan kredit ko‘rinishida beriladigan pul mablag‘lari odatda xo‘jalik yurituvchi subyektning hisob-kitob schyotiga yozib qo‘yiladi yoki mol yetkazib beruvchilardan bo‘lgan qarzni uzish uchun o‘tkaziladi. Demak, bu mablag‘ balansning boshqa moddalarida aks ettiriladi.

«Kreditorlar» moddasining «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar» qatorida keltirilgan summa xo‘jalik yurituvchi subyektning mol yetkazib beruvchilardan sotib-olingan har xil moddiy boyliklari uchun qarzini ko‘rsatadi.

«Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlari» moddasida xo‘jalik yurituvchi subyektning ishchilar va xizmatchilariga hisoblangan ish haqiga doir majburiyatlari aks ettiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu modda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishchi va xizmatchilarning bajargan ishlari uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan ish xaqi summasi qancha ekanligini ko‘rsatadi.

«Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzi» moddasi xo‘jalik yurituvchi subyektning budjet oldidagi undan undiriladigan har xil soliqpar va ajratmalarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarining summasini, ya’ni moliya tashkilotlariga bo‘lgan qarzning miqdorini aks ettiradi. To‘lanishi lozim bo‘lgan summa aniqlanganidan keyin, xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z balansining passivida shu modda bo‘yicha uning summasini ko‘rsatadi.

Buxgalteriya balansi quyidagi belgilariga ko‘ra tasniflanadi:

1. Tuzish vaqtiga ko‘ra: kirish balansi, joriy (davriy) balans, tugatish balansi, bo‘lish balansi, birlashtirish balansi.

Kirish balansi-korxonaning tashkil topish paytida tuziladi. U korxonaga o‘z faoliyatini boshlayotgan bo‘lyiklar summasini belgilaydi. Kirish balansida ustav kapitali ta‘sis hujjatlari bo‘yicha va unga doir badallar pul mablag‘lari, boshqa mol-mulk ko‘rinishidan, aqliy mulk nomoddiy aktivlar ko‘rinishida aks ettiriladi va hokazo.

Joriy balanslar-korxonaga qonunchilik bilan belgilangan muddatda mavjud bo‘lgan vaqt mobaynida vaqti-vaqti bilan tuzilib turiladi.

Bo‘lish balanslari yirik korxonaning bir necha mayda korxonalariga bo‘linish vaqtiga yoki shu korxonaning bir yoxud bir necha tarkibiy bo‘linmasini boshqa korxonaga berish vaqtiga tuziladi. Ba‘zi hollarda bu balans berish balansi ham deb yuritiladi.

Birlashtirish balansi bir necha korxonalar bitta balansga birlashganida tuziladi.

Tugatish balansi-korxonaga faoliyatini tugatish sanasida mol-mulk va uning manbalari holatini tavsiflash uchun tuziladi. Tugatish balansi asosida tugatish komissiyasi korxonaning tugatilish paytidagi kreditorlik va debitorlik qarzlari summasini belgilaydi, so‘ngra kreditorlar bilan hisob-kitob qiladi, keyin korxonani tashkil etish chog‘ida muassislarning tomonidan ustav kapitaliga kiritilgan badallarni qaytaradi. So‘ngra korxonaga mol-mulkining qolganini uning muassislari o‘rtasida taqsimlaydi, ya‘ni barcha uzil-kesil hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Tugatish balansida xo‘jalik sub‘ektining aktivlari tugatish komissiyasi bahosida, ya‘ni ular sotilishi mumkin bo‘lgan bahoda aks ettiriladi. Olinishi umidsiz qarzlarning va zararlar tugatish balansiga kiritilmaydi.

2. Tuzish manbalariga ko‘ra: inventar balanslari. Faqat inventar vositalari asosida tuziladi ular qisqartirilgan variantda hisoblanadi. Bunday balanslar mavjud mulk asosida yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning vujudga kelganda yoki xo‘jaliklarning o‘z shaklini o‘zgartirganda talab qilinadi;

daftar balansi - inventarizatsiya o'tkazish yo'li bilan oldindan tekshirilmasdan faqat daftarlardagi yozuvlar asosida tuziladi;

bosh balans - hisob va inventarizatsiya ma'lumotlariga asosan tuziladi.

3. Axborot hajmiga ko'ra: yakka (bir martalik) va yig'ma balanslarga bo'linadi. Yakka (bir martalik) balans - faqat bir xo'jalik yurituvchi subyekt bo'yicha joriy hisob asosida tuziladi; yig'ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, firmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va shu kabilar)ning xo'jalik mablag'larini aks ettiradi. U barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'larining umumiy holatini aks ettiruvchi summalarni mexanik qo'shish yo'li bilan tuziladi.

4. Faoliyat xarakteri bo'yicha: asosiy balans - xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyat turi va ustaviga to'g'ri keladigan balans;

asosiy bo'lmagan balans - xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa faoliyat turlari bo'yicha tuziladigan balans.

5. Mulkchilik shakliga ko'ra: davlat, kooperativ, o'z, aralash va qo'shma korxonalar, shuningdek, jamoat tashkilotlari balanslari farq qiladi,

6. Aks ettirish ob'ektiga ko'ra: balanslar mustaqil va alohida balansga ajratiladi.

Mustaqil balansni yuridik shaxs bo'lgan korxonalar tuzadi.

Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo'linmalari (filiallar, sexlar, korxonaning avtotransport va turar-joy hamda kommunal xo'jaliklari) tuzadi.

7. Tozalanish usuli bo'yicha: brutto-balans va netto-balanslarga bo'linadi. .

“Brutto” atamasi italyancha «brutto» so'zidan olingan bo'lib, u dag'al, toza emas degani, «netto» atamasining ma'nosi toza demakdir. Sobiq ittifoq davrida ham balans-brutto, balans-netto keng foydalanilgan. Brutto-balans 1938 yilgacha bo'lgan, 1938-1952 yillarda netto-balansga o'tilgan, 1952-1992 yillarda yana brutto-balansga qaytilgan, 1993 yildan boshlab esa yana netto-balansga o'tildi.

Brutto-balans – tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir. Vositalarning haqiqiy qiymatini (tannarxi yoki qoldiq qiymatini) aniqlashda summalar boshqa moddalar summalaridan chegiriladigan moddalar tartibga

soluvchi moddalar deyiladi. Masalan, «Asosiy vositalar» summasidan «Asosiy vositalarning eskirishi» tartibga soluvchi modda summasi chegiriladi. Brutto-balansda ana shu tartibga soluvchi moddalar summasi balans yakuniy qiymatiga kiritiladi.

Netto-balans – qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans. O‘zbekistondagi barcha korxonalar netto-balans tuzadi, ya’ni balans yakuniga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar qoldiq qiymatda, qayta sotiladigan tovarlar esa tannarxi bo‘yicha kiritiladi.

Balansga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

- balansning to‘g‘riligi;
- balansning realligi;
- balansning yaxlitligi;
- balansning izchilligi;
- balansning tushunarligi,

Balansning to‘g‘riligi - balansni tuzishda asoslanilgan hujjatlarning to‘laligi va sifati bilan ta’minlanadi. Agar hisobot davrida xo‘jalik faoliyatining barcha muomalalari o‘z vaqtida hujjatli rasmiylashtirilmagan yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan bo‘lsa, unda balans korxonada ishining haqiqiy yakunini aks ettirmaydi. Buxgalteriya balansining har bir moddasi hujjatlar, buxgalteriya schyotlaridagi yozuvlar, buxgalteriya hisob-kitoblari va inventarlash bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Buxgalteriya balansi ma’lumotlarini qasddan buzish – niqoblash deyiladi. Balansni niqoblash qoida buzilishlarini yashirish maqsadida atayin va balansni tuzish bo‘yicha ayrim qoidalardan bexabarlik oqibatida bilmasdan qilingan bo‘lishi kerak.

Balansning realligi - moddalar bahosining ob’ektiv voqelikka muvofiq kelishini anglatadi. Balansning «to‘g‘riligi» va «realligi» tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik kerak. Balans to‘g‘ri, ammo noreal bo‘lishi mumkin, ya’ni balans ma’lumotlari hujjatlar asosida tuzilgan bo‘ladi va haqiqiy mavjud mablag‘larni ko‘rsatadi, ammo uning ayrim moddalari real holatni, masalan, asosiy vositalar –

ma'naviy eskirganligi, debitorlik qarzini talab qilib olib bo'lmashligi va shu kabilarni ko'rsatmaydi.

Balansning yaxlitligi - balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo'yicha tuzilishini, ya'ni korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalarida va tarmoqlarida buxgalteriya hisobi schyotlarining bir xildagi mazmuni, ularning korrespondensiyasi va shu kabilarni qo'llanilishini anglatadi.

Moliyaviy hisobotning barcha shakllari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Buxgalteriya hisobi va hisoboti uslubiyati va ularni tashkil etish boshqarmasi ishlab chiqqan «Korxonalar choraklik va yillik moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalar» asosida tuziladi.

Balansning izchilligi - har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi lozimligida ifodalanadi. Masalan, oldingi yil yakuniy balansi (yil oxiriga bo'lgan ma'lumotlar) boshlang'ich balansi bo'lishi kerak, chunki hisobot yili oldingi yilning davomi hisoblanadi.

Balansning tushunarlilikligi – uning balansni tuzuvchilar va uni o'qiydigan hamda tahlil qiladiganlar tushunishi uchun qulayligidir. Balansni aniq va tushunarli qilish uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o'zbek va rus tilida) bayon qilingan, uning shakli ancha soddalashtirilgan.

Shuningdek, buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- korxonaga egalik qiladigan vositalarni aks ettiruvchi aktivlar;
- korxonaga tasarrufidagi o'z sarmoyasi;
- keyinchalik belgilanishi bo'yicha qaytarilishi lozim bo'lgan aktivlarni sotib olish, hosil qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar.¹²

¹² 24. Olimov Q.T. "Pedagogik texnologiyalar".-T.: "FAN VA TEXNOLOGIYA". 2011. 98-b.

2.2. Buxgalteriya balansi moddalarining turkumlanishi va ularning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta’siri tahlili

Yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarkibini o‘rganish va uni ko‘paytirish yo‘llarini aniqlash xo‘jalik faoliyatining tahlilida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, balansga qarab korxonalar mol–mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag‘ holatini aniqlash, imkoniyat me‘yorini o‘lchashga yordam beradi. Odatda, korxonalar mablag‘lariga asosan vositalar va oborotdan tashqari aktivlar hamda material (me‘yorlashtirilgan) aylanma pul mablag‘lari kiradi. Ularni miqdori hissadorlik, hamkorlik, kichik va boshqa korxonalarining katta–kichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog‘liqdir.

Moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxonalar mulki, zahiralar va xarajatlarni har tomonlama o‘rganishdir. Bunday mablag‘lar tarkibiga ishlab chiqarish zahiralari, ya’ni xom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruktsiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o‘rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug‘ va yem-xashak, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar va boshqalar kiradi. Ular korxonaning bir me‘yorida ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo‘yicha sotish rejasini ta‘minlashga yyetarli bo‘lishi lozim.

Shuningdek, zahira va xarajatlar tarkibiga o‘simlik va chorvachilik bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr chiqimlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o‘rganish va tahlil etish lozim bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda korxonalar mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma’lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati o‘rganiladi. Keltirilgan ma’lumotlar balansning jami summasiga teng bo‘ladi.

Buxgalteriya balansi aktiv moddalarining tahlili¹³

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa ming so'm	Salmog'i %	Summa ming so'm	Salmog'i %	Summa ming so'm	Salmoq %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6 (4-2)	7 (5-3)	8 (6/2*100)
1. Uzoq muddatli aktivlar	189795	25,834	204781	23,08	+14986	-2,76	+7,90
2. Joriy aktivlar Shu jumladan:	544869	74,166	682577	76,92	+137708	+2,76	+25,27
A) TMZlari, kelgusi davr va muddati kechiktirilgan xarajatlar	474033	64,52	532948	60,06	+58915	-4,46	+12,43
B) Pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalar	7845	1,07	9531	1,07	+1686	+0,01	+21,49
V) Debitorlar	54886	7,47	149523	16,85	+94637	+9,38	+172,42
Balans aktivining JAMI	734664	100	887358	100	+152694	0	20,78

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik sub'ektida o'rganilayotgan joriy davrda jami aktivlar summasi 152694 ming so'mga yoki 20,78 % ga ko'paygan. Aktivlarning ko'payishini ijobiy baholagan holda, ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, aktivlarning ko'payishi asosan joriy aktivlarning 137708 ming so'mga ortganligi hisobiga bo'lgan. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari ham 14986 ming so'mga ortganligini ijobiy baholamoq lozim. Joriy aktivlarning tarkibini o'rganadigan bo'lsak, joriy yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zahiralari 12,43 % ga ko'paygan, ya'ni bu 58915 ming so'mni tashkil etadi. Xo'jalik sub'ektining debitorlik qarzlari ham yil oxiriga kelib 172,42 % ga yoki 94637 ming so'mga ko'payganligini salbiy baholamoq kerak. Chunki, debitorlik qarzining bunday tartibda ortib borishi korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini sekinlashtiradi, to'lov qobiliyatini

¹³ Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A., «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». O'quv qo'llanma. 2011.-116 b.

yomonlashuviga olib keladi. Korxonada aktivlari tarkibida asosiy salmoqni tovar-moddiy zahiralarini egallamoqda, ya'ni u 60 % ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada me'yordan ortiqcha tovar-moddiy zahirasi yaratilganligini hamda uning natijasida korxonada joriy aktivlarini aylanishi sekinlashishini ko'rsatmoqda. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ma'muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko'rishini lozim deb hisoblaymiz.

Bozor sharoitida aylanma mablag'lar, zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi eng kam, sof faoliyat ko'rsatadigan sharoitiga yetarli bo'lishi lozim. Tahlilda esa balans ma'lumotlari va materiallarni hisoblovchi schyotlardan foydalaniladi.

Balansning passiv qismida korxonada mablag'larining qoplash manbalari ko'rsatiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

1. O'zlik mablag'larning manbalari.
2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli bo'lgan ustav kapitali, qo'shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxonada ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning hajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, xomiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o'rinni egallaydi. Foyda hajmining ko'payishi eng avvalo Ustav jamg'armasini to'ldirishga va boshqa rezerv jamg'armalari yaratilishga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi ham bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda.

Kredit va boshqa mablag'larga qisqa, o'rta, uzoq muddatga mo'ljallab olingan kreditlar, o'z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag'lari kiradi. Shuningdek kreditorlar bilan hisoblashishlar va boshqa passivlar ham shu

yerda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlardan tashqari byudjetga, sug'urta va mehnat haqi yuzasidan korxonaning qarzlari ko'rsatadi.

Bozor iqtisodi qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqan holda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. 8-jadvalda korxonada mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

8-jadval

Buxgalteriya balansini passiv moddalarining tahlili¹⁴

Mol-mulkni tashkil topish manbaining tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa ming so'm	Salmog'i %	Summa ming so'm	Salmog'i %	Summa ming so'm	Salmog'i %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6 (4-2)	7 (5-3)	8 (6/2*100)
1. O'z mablag'larining manbalari	459877	62,597	735163	82,85	+275286	+20,25	+59,86
2. Majburiyatlar Shu jumladan:	274787	37,403	152195	17,15	-122592	-20,25	-44,61
a) uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-	-	-	-
b) joriy majburiyatlar	274787	37,403	152195	17,15	-122592	-20,25	-44,61
Balans passivining JAMI:	734664	100	887358	100	+152694	-	+20,78

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik sub'ektida joriy yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 152694 ming so'mga yoki 20,78 % ga ortgan. Korxonada mol-mulkni tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda ko'payishini ijobiy holat sifatida baholamoqlozim. Ammo, ushbu manbalar qaysi manbalar hisobiga ko'payganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni manbalarning ko'payishi o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxirida o'z mablag'lari manbalari yil boshiga nisbatan 275286 ming so'mga yoki 59,86 % ga o'sgan. Bunday natijalarni korxonada uchun ijobiy deb baholamoq lozim. Chunki, o'z mablag'larining manbalarini

¹⁴ Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A., «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». O'quv qo'llanma. 2011.-120 b.

ko'payishi korxonaning moliyaviy mustaqilligini ortishiga, to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxiriga majburiyatlar summasi - 122592 ming so'mga yoki 44,61 % ga pasaygan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmog'ini 20,25 % ga kamaytirgan. Bundan ko'rinadiki korxonaning to'lov likvidligi ancha ko'tarilgan. Balans passividagi moddalarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy salmoqni, ya'ni 82,85 foizni o'z mablag'lari manbalari tashkil etmoqda. Bu korxonaning mustahkam moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi. Mazkur korxonada hisobot davrida joriy majburiyatlari, ya'ni kreditorlik qarzlari bir qadar kamayganligini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

Xususiy kapital (o'z mablag'lar manbai) hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Ustav kapitali;
- Qo'shilgan kapital;
- Rezerv kapitali;
- Taqsimlanmagan foyda;
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischi tomonidan qo'yilgan pay to'lovlarini, aktsiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mulkni ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Taqsimlanmagan foyda - bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710- «Hisobot davridagi

taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 – “Jamg‘arilgan foyda (Qoplanmagan zarar)” schyotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralari orqali aniqlanib olinadi.

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so‘mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to‘g‘ri kelgan sof foyda qiymati o‘rganiladi. Buning uchun,

$$\text{Xususiy kapital rentabelligi} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati}}$$

ko‘rinishida hisob - kitob ishlarini bajarishimiz kerak.

Bu yerda aktivlarning o‘rtacha qiymati jami mablag‘larning yil boshiga va yil oxiriga bo‘lgan qiymatini yig‘indisini ikkiga bo‘lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig‘ining korrektirovkasi sof foyda hisobidan bo‘lganligi uchun bu qiymatlarning yig‘indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Aylanma mablag‘larni qoplashga o‘zlik manbalarining yetarliligi yoki yetishmasligini tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholash bosqichidan keyingi eng asosiy bosqich bo‘lib – korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda korxonaning aylanma mablag‘larini qoplashga korxonaning o‘z mablag‘larini yyetarli yoki yetishmasligi ham o‘rganiladi.

Balans ma’lumotlariga qarab korxonani aylanma mablag‘lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o‘rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalar moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layyohatligini aniqlashda o‘zlik manbalar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkich muhim ahamiyatga egadir. Quyidagi jadvalda zahira va xarajatlarni qoplashga o‘zlik manbalarining yyetarligini aniqlash uslubi keltirilgan.

**Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar bilan
ta'minlanganlikning tahlili (ming so'mda)¹⁵**

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. O'z mablag'larining manbalari	459877	735163	275286
2. Uzoq muddatli aktivlar	189795	204781	14986
3. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z manbalari (1-2)	270082	530382	260300
4. Uzoq muddatli kredit va qarzar	-	-	-
5. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	270082	530382	260300
6. Qisqa muddatli kredit va qarzar	274787	152195	-122592
7. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	528129	693529	165400
8. Tovar-moddiy zaxiralarning jami	474033	532948	+58915
9. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z manbalarining yyetarliliigi (+) yoki yetishmasligi (-), (3-8)	-200751	-1068	-199683
10. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining yyetarliliigi (+) yoki yetishmasligi (-), (5-8)	-200751	-1068	-199683
11. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarning yyetarliliigi (+) yoki yetishmasligi (-) (7-8)	57296	162079	+104783

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik sub'ektida hisobot yili boshiga nisbatan yil oxirida 275286 ming so'mga o'z mablag'lari manbalari ko'paygan. Xo'jalik sub'ektining uzoq muddatli aktivlari esa yil boshiga nisbatan 14986 ming so'mga ortgan. Buning natijasida korxonada joriy yil oxiriga kelib tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'zlik manbalari hajmi 260300 ming so'mga ko'paygan. O'zlik manbalarning ko'payishini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ektda joriy yil boshida va

¹⁵ Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A., «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». O'quv qo'llanma. 2011.-125 b.

oxirida uzoq muddatli majburiyatlari bo'lmagan. qisqa muddatli majburiyatlari esa yil boshida 274787 ming so'm bo'lgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 152195 ming so'mni tashkil etgan, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlari 122592 ming so'mga kamaygan. Bunday holat esa korxonaning tovar-moddiy zahiralari qoplashga tegishli manbalarini qisqarishiga ta'sir etgan. Mazkur xo'jalik yurituvchi sub'ektda tovar-moddiy zahiralari hajmi birmuncha yuqori bo'lganligi uchun joriy yil boshida ham, yil oxirida ham tovar-moddiy zahiralari qoplashga o'z manbalari hamda o'z va uzoq muddatli qarz manbalari 199683 ming so'mga yetarli bo'lmagan. Faqatgina qisqa muddatli majburiyatlar hisobigagina tovar-moddiy zahiralari qoplashga jami manbalar 104783 ming so'mga ortiqcha (yetarli) bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo'lgan. Bunday natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida unchalik yaxshi natija deb hisoblanilmaydi. Shu sababli ham, korxonada ma'muriyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda korxonaning moliyaviy barqarorligi yil boshiga nisbatan yil oxirida biroz bo'lsada yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin.

2-bob bo'yicha xulosa

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy ish yuritish shart-sharoitiga mos keluvchi balansda aktiv va passiv tomonlar mavjud. Aktiv tomonida korxonada mablag'lari, passivida esa xo'jalikning o'ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko'rsatiladi. Aktiv mablag'larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad)ning ko'payishi bilan bog'liqdir. Balansning barcha bo'lim va bandlarini chuqur o'rganish moliyaviy ahvolni to'liq o'zlashtirishning asosini tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi subyekti ichida balansda keltirilgan axborotlar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, xarajatlar va kamomadlarni qisqartirish zaxiralarini qidirib topish, xo'jalik yurituvchi subyekti hisobidan to'lanadigan jarimalar sabablarini bartaraf etish uchun keng qo'llaniladi.

Balans ma'lumotlari asosida uning moddalarini tahlil qilar ekanmiz xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mol-mulkining tarkibi va mol-mulkni tashkil topish manbayining tarkibi ma'lum bir davr (bir yil) oralig'ida tahlil qilindi.

Shuning, ushbu ma'lumotlar asosida buxgalteriya balansini tuzish mumkin. Shu bilan birga yillik hisobotga tushintirish xati, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarining faoliyatning yo'nalishi to'g'risidagi ma'ruzasi, ilova qilinadi. Bu xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy analitik hujjatlaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha reja bajarilishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar ochib tashlanadi: mahsulot miqdori, assortimenti, sifati, mahsulot sotish hajmi, foyda summasi, tannarxni pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, samaradorlik, ilmiy - konstruktorlik ishlarini natijalari va istiqbollari va shu kabilar. Tushintirish xatining mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya xususiyatlari bilan belgilanadi. Bugungi kunda moliyaviy hisobotlarning yangi shakllari tasdiqlangan.¹⁶

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i

3-BOB. “BUXGALTERIYA BALANSI, UNING TUZILISHI VA MAZMUNI” MAVZUSINI O‘QITISHDA MODELLASHTIRUVCHI O‘YIN METODINI QO‘LLASH

3.1. “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusini o‘rganishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llashning ahamiyati

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning bir qismi sifatida yoshlarga berilgan imkoniyatlarni aytib o‘tish mumkin. Ta’lim sohasi tubdan isloh qilinib, yangicha ta’lim tizimi tashkil etildi. Mamlakatimizda mustaqillikdan keying o‘zgarishlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, yoshlarga nisbatan keng yo‘l ochib berildi. Mamlakat kelajagi bo‘lmish yoshlar uchun avvalambor ta’lim muassasalari tubdan yangilanib, hozirgi zamon talablariga to‘la javob beradigan ilm dargohlari qurib, foydalanishga topshirildi. Kadrlar sohasiga bo‘lgan e’tibor kuchaytirilib, qator qonun hujjatlari ishlab chiqildi. Kadrlar tayyorlash sohasiga bo‘lgan e’tibor kundan -kunga rivojlanmoqda.

Ta’lim tizimi isloh qilingach, dars berish jarayoni ham yangilandi. Ilgari foydalanilgan dars o‘tish metodlaridan yangi pedagogik metodlarga o‘tildi. Bizga ma’lumki, talaba - yoshlar hech qachon bir xil bilim darajasiga ega emaslar. Qaysidir talaba sekinroq tushunsa, yana qaysidir talaba tezroq ilg‘ab oladi. O‘quvchilar bilim darajasi jihatidan har xil bo‘ladi. Biri faol, biri sust. Kimdir tez axborotni qabul qilsa, kimdir sekin, qo‘shimcha yana bir oz tushuntirishdan so‘ng qabul qiladi. Bunday o‘quvchilar odatda guruh oldida savol bergani ham uyalishadi.

Bo‘lgusi mutahassislarini sifat jihatidan zamon talabi darajasida tayyorlashga avvalo ularga aniq bilimlar berish, kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularni kelgusi faoliyatlarida unumli qo‘llashga o‘rgatish orqali erishish mumkin. O‘quv-tarbiya jarayonini ta’lim nazariyasi faoliyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqib, barcha ta’lim-tarbiya ishlarini “pedagogik texnologiya” yo‘nalishiga o‘tkazish kerak. Bitiruv malakaviy ishining bosh maqsadi buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni haqida ma’lumotlarni talabalarga o‘yin tashkil etgan holda yetkazib berishdir. Bu jarayonda asosan o‘qituvchining

o‘rni alohida. Chunki avvalambor talaba - yoshlarni darsga qiziqтира olish zarur. Bunda u o‘zining bor mahoratini ishga solishi kerak. Masalan , o‘ziga biror qulayroq dars o‘tish usulini belgilab, shu bilan darsni boshlaydi. Bunday usullarga modellashtiruvchi o‘yin metodining bir qismi hisoblangan birgalikda bilim olish usulini aytish mumkin. Birgalikda bilim olish usulidan foydalanilganda uning o‘qitish prinsplariga to‘la rioya qilish lozim.¹⁷

1) O‘qituvchi psixologik jihatdan bir- biriga mos keladigan o‘quvchilardan iborat 3-4 kishilik guruhni dars boshlanishiga qadar belgilaydi.

2) Guruhga vazifa berilganda uni bajarish uchun taqsimot ishi avvaldan bajarilishi kerak (a‘lochi, o‘rta, qoniqarli o‘qiydigan o‘quvchilar nazarda tutiladi).

3) Baholanganda guruh a‘zolariga alohida-alohida baho berilmaydi.

Guruhga umumiy baho berilishi shart. Guruhga berilgan vazifa bo‘yicha javob beruvchi o‘quvchini o‘qituvchi o‘zi tanlaydi.

4) Guruhga berilgan vazifa bo‘yicha javob beruvchi o‘quvchini o‘qituvchi o‘zi tanlaydi.

Shunda guruhdagi har bir o‘quvchi javob berish uchun tayyor bo‘ladi. Bunday usuldan foydalanish nafaqat ta‘lim, balki o‘quvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasi uchun ham ijobiy samara beradi. Bizga ma‘lumki, buxgalteriya hisobi fani iqtisodiy fan bo‘lib, uni o‘qitishda o‘qituvchilar alohida yondashishlari kerak. “ Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni ” mavzusini tashkil etishda modellashtiruvchi metodni qo‘llashning samaradorligi bir qancha tushunchalar bilan bog‘liq:

- Mavzuni o‘rganishda qo‘llanilgan modellashtiruvchi metod bilan bog‘liq innovatsion texnologiyalarning nazariy - amaliy mukammalligi, amaliyotda qo‘llanganligi;

- Mavzuni o‘rganishga doir innovatsion yondashuvga oid tegishli shart - sharoitlar , ya‘ni har bir fanning o‘ziga hos hususiyatidan kelib chiqib, o‘quv reja va dasturlarda iqtisodiy va pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi;

¹⁷ D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.:“Fan va texnologiya”, 2007.-88 b.

- Modellashtiruvchi o'yin metodi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar tadbiriga doir bo'lgan munosabati va kasbiy metodik salohiyatning uyg'unligi.

Dars jarayonini tashkil etishda turli metodlar qo'llanilmoqda. Shu o'rinda ushbu metodlarga qisqacha to'xtalsak.

Dars o'tish metodlari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

To'g'ridan-to'g'ri bayon qilish uslubi. Bu model (uslub)da yangi tushunchalar, navbatma - navbat, asta - sekinlik bilan, mantiqiy izchillikda berib boriladi. Bu uslub ko'proq ma'ruza o'qilganda qo'llaniladi.

Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash. Bu uslubda juftlik yoki kichik guruh bilan birgalikda qo'yilgan u yoki bu masalani, ma'lum belgilangan vaqt ichida o'zaro fikr almashish, muloqot qilish orqali yechish ko'zda tutiladi.

Modellashtiruvchi amaliy o'yinlar va mashqlar. Bu uslubda talabalar qatnashadi. Modellashtirishda abstrakt uslublardan foydalanib, real voqelikka iloji boricha yaqinlashtiriladi. Bu uslub oson tushunadigan talabalarga qo'l keladi. Modellashtiruvchi o'yinda talabalar o'zlari belgilangan rollarni bajaradilar. O'z xatti - harakatlari orqali zarur malaka va ko'nikmalarni egallashadi.

Bitiruv malakaviy ishi ishining bosh maqsadi sifatida modellashtiruvchi o'yin metodiga alohida to'xtalsam.

Modellashtiruvchi o'yin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan hamda turli (imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan) o'yinlar yordamida ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyatdir.

Modellashtiruvchi amaliy o'yin - bu bilim olish, o'rganishning kompleks varianti hisoblanadi. Chunki o'yin mobaynida turli usullardan foydalaniladi. O'yinning muvaffaqiyati bevosita uning bilimdonlik bilan tanlanishi, bajarishiga, talabalarni o'z rollarini ma'nosini tushunib etishiga bog'liq. Bu metodning afzalligi shundaki, talaba masalaning mohiyatiga qarashini, avvalgi nuqtai nazarini o'zgartirish imkoniga ega. Modellashtiruvchi o'yin motivatsiya nuqtai nazaridan ham foydali. Talabalar ko'pincha bunday o'yindan qanoat hosil qilib, yangi

o'rganganlarini o'rtoqlashadilar. Darsga faol qatnashadilar. Talabalar bir qarorga kelishni eksperiment qilishlari va uni oqibatini (minimal xatar bilan) kuzatishlari mumkin. Modellashtiruvchi o'yin yordamida talabalarni real hayot voqeliklari bilan tanishtirish ustunlikka ega. Bunda qo'yilgan savollarga javob topish va real muammolarni yechish uchun talabalarning shaxsan o'zlari qatnashadilar, real hayotning nazariy modeli bilan tanishadilar.

Masalan, bozorda muvozanat narxi qanday o'rnatiladi, tanlov qanday amalga oshadi va hokazo. Modellashtirilgan o'yin metodi o'qituvchiga dars berishning usullarini o'zgartirishga katta imkoniyat beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar olib borilganda o'qituvchi o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonining tashkilotchisi bo'lishi lozim.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'yin mehnat va o'qish kabi faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Insonni shaxs sifatida kamol topishida o'yinlarning ahamiyati katta. O'yinlar inson o'zini hayotda namoyon qilishi, o'z o'rnini topishi, o'z - o'zini boshqarishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'quvchilar bilim darajasi jihatidan har xil bo'ladi. Biri faol, biri sust.

Kimdir tez axborotni qabul qilsa, kimdir sekin, qo'shimcha yana bir oz tushuntirishdan so'ng qabul qiladi. Albatta guruh a'lochi, yaxshi va qoniqarli o'qiydigan o'quvchilar bilan tashkillashtirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zaro vazifani muhokama qilib, berilgan matn bo'yicha topshiriqlarni bajarishadi. O'tkazilgan sinov ishlarida shunisi ma'lum bo'ldiki, birgalikda bilim olish o'quvchilarga yengillik yaratib, mashg'ulot saviyasini oshiradi. Birgalikda bilim olish usulidan foydalanilganda uning o'qitish prinsplariga to'la rioya qilish lozim. Shu o'rinda talabalar bilim darajasini yaxshilash maqsadida modellashtiruvchi o'yin metodi o'z o'rniga ega.¹⁸

O'yinlarni dars o'tish metodi tariqasida borgan sari kengroq yo'llanishiga asosiy sabablardan biri uning qadimdan insonda turli tuman bilim, ko'nikma,

¹⁸ D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. o'quv qo'llanma. T.:“Fan va texnologiya”, 2007.-90 b.

mahoratni hosil bo'lishi va uning xotirasida saqlanish shakli sifatida qo'llanilib kelishidir.

Iqtisodiy fanlarni o'rganishda modellashtirish metodi muhim o'rin tutadi. Aynan modellashtirishda talabalar iqtisodiy tushunchalarni o'rganishni eshitish, ko'rish orqaligina emas, balki o'zlari ham qatnashib o'rganadilar. Natijada, birinchidan, eng passiv talabalarni ham darsda faol qatnashishlari ta'minlanadi. Ikkinchidan, talabalar u yoki bu tushunchani, jarayonni o'rganishda o'zlari qatnashganlari tufayli u xotiralarida uzoq saqlanib, faol bilim zaxirasini tashkil etadi. Hozirga davr ta'lim shuni ko'rsatadiki talabalarda o'tilgan mavzu talabalarda ko'proq yodda qolishiga bevosita amaliyot yoki mavzuni o'yin tarzida o'tish katta ahamiyatga ega.

Bilim va malaka o'qish, faoliyat yuritish jarayonida shakllanadi. Biror malakani egallash uchun unga oid faoliyatni ko'p marta takrorlash, mashq qilish, muntazam amalga oshirish zarur. Ana shu jarayon natijasida O'quvchi, talabalarda O'quv, ko'nikma shakllanadi.

Bu jihatdan ham modellashtiruvchi o'yin metodi katta ahamiyatga ega. O'yinlarning afzalligi shundan iboratki, o'yin ishtirokchilari o'ziga u yoki bu rolni olib, harchand qiziqishlari bir – birinikiga mos tushmasada o'zaro muloqotga kirishadilar, natijada ziddiyatli vaziyat yaratilib, ehtirosli holat yuzaga keladi va bu o'yinga qiziqish uyg'otadi. O'yin ishtirokchilari beixtiyor ravishda o'yin davomida o'z xislatlarini namoyon qiladilar. Bunda ular olgan bilim, kasbiy O'quv malakalarinigina emas, balki umumiy iqtidorini, o'z tabiatidagi mavjud jur'at, tezkorlik, kirishimlilik, tashabbuskorlik, faollik kabi xislatlar bor yoki yo'qligini ham namoyish etadilar.

Talabani o'yin jarayoniga tortilishi, o'yin jarayonida yuz beradigan vaziyat, emotsional hayajon, qayg'urish ularni ijodiy faoliyatini oshiruvchi kuchli stimulyator rolini o'ynaydi. Talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi. Metodlarni qo'llab dars o'tishda avvalombor ketma - ketlik tanlab olinadi.

O'yinlardan foydalanib dars o'tish turli maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan.

O'yinning didaktik maqsadi. Talabalarni bilimlarni o'rganish, tushunish, amaliyotda olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini qo'llash, ularni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini kengaytirishga qaratilgan.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi. Mustaqillikni, irodani tarbiyalash, ma'naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirish, jamoaga kirishib keta olish - kommunikabellikni tarbiyalash.

Modellashtiruvchi o'yinlar: shartli ravishda imitatsion, amaliy, rol ijrosiga asoslangan o'yinlarga bo'linadi.

Imitatsion o'yinlarda biron-bir tashkilot, muassasa, korxonada faoliyati andoza qilinadi. Voqealar kishilarning biror faoliyati(biznes rejasini muhokama qilish, ish majlislari) andoza qilib olinishi mumkin.

Amaliy(operatsion) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisa, faoliyat, operatsiyaning bajarilishi mashq qilinadi. Amaliy o'yinlar ish jarayoniga xos ravishda modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda aniq shaxsning xulqi, xatti-harakati va majburiyatlarining bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Rol o'yinlari o'quvchi-talabalarning shaxsiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'yinlarda o'yinda qatnashuvchilarning o'zi muammolarni o'ylab topishadi, ular faoliyati va qaror qabul qilishi cheklanmaydi. Ularning o'zi maqsad qo'yib, uni amalga oshirish uchun o'yin qoidasi doirasida turli vositalardan foydalanishadi.

O'yindagi vaziyat o'yin ishtirokchilari tomonidan alohida pedagogik usul sharoitida emas, balki kundalik real hayotiy vaziyatni davomi kabi qabul qilinadi.

Rolli o'yinlar - bu yoshlarni tarbiyalash va bo'sh vaqtini o'tkazishni tashkil qilishning shakli ham. Bu o'yinlar o'rganish, tarbiyalash, dam olishda qo'llaniladi va ular katta pedagogik potensialga ega. O'yinlar o'quv jarayonida o'qitish, o'rganish metodi. Uni turli darajada va maqsadlarda qo'llash mumkin.

Barcha talabalarni darsga qiziqib, faol qatnashishlarini ta'minlashda modellashtiruvchi o'yin metodining oldiga tushadigani yo'q.

3.2. “Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusini o‘rganishda modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llab dars o‘tish

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq har bir jabhada rivojlanishni ko‘ramiz. Mustaqillikdan so‘ng olib borilayotgan islohotlar ichida ta‘lim tizimini aytib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir. “ Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta‘lim sohasiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Buxgalteriyada puxta o‘rganish zarur bo‘lgan dastlabki mavzular, ayniqsa, buxgalteriya hisobvaraqlari, ikkiyoqlama yozuv bo‘lib, keyingi mavzularda ko‘riladigan buxgalteriya hisobi operatsiyalarini bajarish ko‘p jihatdan talabalar ularni kay darajada o‘zlashtirgani, tushunib etganlariga bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchi - talabalarning mavzuni puxta o‘zlashtirishlari kelgusida ham muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib, darsda barchani faol qatnashishini ta‘minlovchi modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llash, o‘yinni esa quyidagicha tashkil qilish mumkin.

Dars o‘tishda bu metoddan nisbatan keng foydalanilmoqda. Modellashtiruvchi o‘yinlar talabalarga abstrakt iqtisodiy tushunchalar, real hayotdagi iqtisodiy voqea - hodisalarni ifodalash, ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Ya‘ni:

1) Modellashtirish metodi asosiga qurilgan dars belgilab olishdan boshlanadi. O‘qituvchi talabalarni amaliy o‘yin, uning maqsadi va foydalaniladigan tushunchalar bilan tanishtiradi. O‘qituvchi biron bir mavzu, savolni modellashtiruvchi o‘yinlar yordamida o‘tkazishni mo‘ljallar ekan, eng avvalo, unga tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Tayyorgarlik bosqichi quyidagilar:

- o‘yinni ishlab chiqish;
- uni o‘tkazish qoidalari va ularni talabalarga tushuntirishni o‘z ichiga oladi.

2) Modellashtiruvchi o‘yinning qanday o‘tkazilishi yozma matnda bosqichma-bosqich uzluksiz tarzda ko‘rsatiladi. Shuning uchun mavzularga mos

maxsus ish o'yinlari avvaldan ishlab chiqilishi, o'yin ssenariysi yozilishi zarur.

Unda o'yinning maqsadi ;

- o'yin vazifalari va ularning bajarish izchilligini ta'minlash;
- o'yin qoidalari buzilishini oldini olish va nazorat qilish;
- ko'zlangan natijaga erishish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish;
- g'oliblarni aniqlash tartiblari ishlab chiqish;

Talabalar qanday rol o'ynashadi, o'yinning qoidalari, uni o'tkazishni qadam-baqadam ko'rsatmasi beriladi. Juda ko'p o'yinlarda talabalar hayotdagi personajlarning rolini o'ynashadi. Masalan, sotuvchi, xaridor, ishlab chiqaruvchi, xizmatchi va hokazo.

O'yin o'tkazish shartlarida har bir rol bajaruvchining maqsadi va unga qanday erishish mumkinligi ko'rsatiladi. Masalan, xaridor belgilangan vaqt ichida iloji boricha arzon, ko'proq tovar sotib olishi, sotuvchi esa, aksincha, ko'proq qimmatga sotishi, ishlab chiqaruvchi ko'proq kam xarajat bilan mahsulot ishlab chiqarishi va hokazo.

3) Modellashtiruvchi o'yin o'tkazilayotganda darsning maqsadini yaxshi tushunmaslik oqibatida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni to'g'rilash, hamda qarama - qarshi muloqot o'rnatish imkoniyatini qoldirishni ko'zda tutishi lozim.

4) Modellashtiruvchi o'yin asosida dars o'tishda talabalar o'yin jarayonida bilim oladi. Muhokama qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan berilgan savollar talabalarga o'yin davomida bajarilgan ishlar, voqealarni umumlashtirishga, darsning asosiy mazmunini tahlil qilishga yordam berishi kerak. Talabalar to'qnashgan qiyinchiliklar, o'zi uchun ochgan yangiliklarni aniqlash, o'yinni real hayot voqealari bilan taqqoslash, o'tilayotgan darsning mazmuni bilan bog'lash asosida ko'rsatilgan asosiy iqtisodiy tushunchalarning anglab etish hamda xulosa chiqarishga yordam berishi kerak.

5) Modellashtiruvchi o‘yin boshqa o‘yinlardan farq qilishini tushuntirish kerak. Masalan, kim birinchi bo‘lib masalani yechadi, yoki krossvord tuzadi va hokazo. Bular, asosan, qandaydir bir musobaqani ifodalaydi.¹⁹

Modellashtiruvchi o‘yinlarga esa, albatta, real ijtimoiy yoki iqtisodiy jarayonni soddalashtirilgan ifodasi, unda qatnashish imkonini beradigan o‘quv tajribasi sifatida qarash mumkin. Modellashtiruvchi amaliy o‘yinlar talabalarga shu jarayonning o‘zini yoki insonlarning xatti-harakatini, o‘zlarini qanday tutishlari, ya’ni tanlov muammosini qanday hal etishlarini namoyon qilishi tufayli iqtisodiy voqea, hodisa, jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Chunki shu jarayonning o‘zida ular qatnashadilar, sinab ko‘radilar.

Bunday usuldan foydalanish nafaqat ta’lim, balki o‘quvchilarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi uchun ham ijobiy samara beradi.

Fikrimizcha, zamonaviy hamda an’anaviy texnologiyalarni birgalikda dars jarayonida qo‘llash har tomonlama foydali bo‘lib, birinchidan, o‘quvchi faolligini oshiradi, ikkinchidan, o‘qituvchi ijodkorligi kengayadi, ta’lim standartlariga javob bergan holda bilim olinadi. Bularning barchasi o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro muloqoti uchun xizmat qiladi. Bizga ma’lumki har bir faoliyatni amalga oshirishda bevosita maqsad bo‘ladi. Masalan, mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektning maqsadi yuqori foyda olishdir. Xuddi shunday modellashtiruvchi metod yordamida dars o‘tishdan ham ma’lum maqsad ko‘zlangan albatta. Avvalambor maqsad so‘ziga to‘xtalsak.

Maqsad - insonni uyoki bu faoliyati jarayonida erishishi lozim bo‘lgan dasturlashtirilgan, rejalashtirilgan natija. Maqsad tekshirib ko‘riladigan va erishiladigan (amalga oshiriladigan) bo‘lishi lozim.

Modellashtiruvchi o‘yin metodida maqsad ikki turda bo‘ladi:

- O‘qituvchi faoliyati maqsadlari.
- O‘quvchi faoliyati maqsadlari.

O‘qituvchi faoliyati maqsadlari o‘quvchi, talaba shaxsini rivojlantirishga qaratilgan. U o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

¹⁹ H.T.Omonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”.Ma’ruzalar matni. 2010.-126 b.

- o'quvchi, talabalarning yangi mavzuni o'rganish loyihasini tasavvur qila olishiga yordamlashish;
- o'quvchi, talabalarning dalillar, tushunchalar, qonunlar haqidagi ko'nikmalarini mustahkamlash;
- o'quvchilarni o'rgangan bilimi va malakasini xilma-xil sharoitlarda mustaqil qo'llay bilishga o'rgatish, «amaliyot»da sinab ko'rish;
- mavzu bo'yicha o'quvchi, talabalarning bilimi, uquvi, malakasini oshirish, mustahkamlash va nazorat qilish.

O'yin o'tkazish uchun qanday tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi uchun tavsiyalar, talabalar uchun ko'rsatmalar beriladi.

Modellashtiruvchi o'yin tamoyili asosida tuzilgan darsning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Mo'ljalga olish

- modellashtiruvchi o'yin o'tkaziladigan mavzuni tanlash;
- mavzu mazmunini o'rganadigan o'yin tanlash yoki ishlab chiqish;
- modellashtiruvchi o'yinda namoyish etiladigan, o'rganiladigan tushuncha va atamalarni aytish, esga solish, qaytarish;
- modellashtiruvchi o'yinning maqsadini tushuntirish.

2. O'yinni o'tkazishga tayyorlanish

- rollarni aniqlash, har bir rolni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur ashyolarni tayyorlash;
- o'yinni o'tkazish qonun - qoidasini belgilash;
- o'yin o'tkazishning aniq tartibini belgilash, qanday o'tkazish haqida aniq ko'rsatma berish;
- zarur bo'lganda qisqacha sinov raundini o'tkazish.

3. O'yinni o'tkazish

- modellashtiruvchi o'yinni o'tkazish;
- o'zaro muloqotni, aloqani ta'minlash;
- noto'g'ri tushunish tufayli yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilash;
- o'yinni davom ettirish.

4. Muhokama qilish.

- O‘yinda yuz bergan hodisalar jarayoniga yakun yasash;
- Jarayonni tahlil qilish;
- O‘yinni real hayot bilan taqqoslash;
- O‘tilayotgan asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan bog‘lash.

Modellashtiruvchi o‘yin metodining afzalliklari.

• Talabalarni darsga faol qatnashuvi va iqtisodiy kategoriyalar mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishi ta’minlanadi;

- mustaqil harakat qilish, qaror qabul qilishga imkon yaratadi;
- o‘zaro aloqa, muloqot ta’minlanadi;
- tushunchalarni amaliyotda qo‘llash uchun sharoit yaratiladi;
- dars o‘tishning turlicha uslublarini birgalikda qo‘llash imkoni yaratiladi;
- talabalarning darsga qiziqishini orttiradi
- darsdagi vaziyatni ko‘p jihatdan talabalar nazorat qiladi;
- o‘qituvchining asosiy roli darsni tashkil etish;
- talabaning ichki hissiyoti, masalaning mohiyatiga qarashini o‘zgartirishi

mumkin.

Har qanday metod kabi bu uslubda ham qator kamchiliklar bor.

Auditoriyada real jarayonlarni soddalashtirishga to‘g‘ri keladi. U bir tomondan yetarli darajada sodda, ikkinchi tomondan yetarli darajada real hayotga yaqin bo‘lishi, real jarayonlarni ifodalashi, buni hisobiga qimmatli tajriba o‘rgatuvchi bo‘lishi kerak.

Modellashtiruvchi o‘yin o‘qituvchidan sinchkovlik bilan puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Darslikka tayangan holda dars o‘tish o‘qituvchidan nisbatan kam vaqt, kamroq kuch, diqqat talab qiladi. Ammo, hamma darsni modellashtiruvchi o‘yin o‘tkazish bilan olib borib bo‘lmaydi. Ko‘pincha, modellashtirish bilim olishning kulminatsiyasi bo‘lib, fanning ba’zi bir asosiy, ularni o‘rganish boshqalariga yo‘l ochib beradigan kategoriyalari, qonunlarin o‘rganishda qo‘llaniladi. Modellashtiruvchi o‘yindan foydalanishdagi muhim cheklanish - bu konkret o‘qituvchining xarakteri, uslubiga bog‘liq.

Ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy uslublar asosida dars o'tishga o'rganib qolishgan, shuning uchun ularga shu uslublar samaraliroq tuyuladi. Modellashtirish talabalarni faolligini oshiradi. Bu yaxshi, lekin talabalarning o'yinga qiziqib ketishlari oqibatida ba'zi bir nomaqbul holatlar yuz berishi mumkin. Ya'ni rolga berilib ketib, ayrim talabalarni aldash yoki qoidani buzish hisobiga g'olib bo'lishga harakat qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi vaqti vaqti bilan talabalarga modellashtiruvchi o'yinining maqsadi bilim olish, tajribaga ega bo'lish ekanini eslatib turishi kerak.

Metodning kamchiliklari:

- reallikni haddan tashqari soddalashtirishga olib kelishi, natijada olingan bilimni hayotda qo'llash nisbatan qiyin, foydasi kam bo'lishi mumkin;
- vaqtdan samarasiz foydalanish;
- mavzu bo'yicha uning mazmunini ifodalaydigan o'yin tayyorlashda qiyinchilikka duch kelinishi;
- o'yinga tayyorgarlikka ko'p vaqt ketishi;
- o'yin davomida talabalarni doimo zarur darajada nazorat qilib turishning birmuncha qiyinchilik tug'dirishi va hokazo.

Shu o'rinda metodning tushunarligini aniqlash uchun misol ko'rib chiqsak. Yuqorida ta'kidlaganimiz modellashtiruvchi o'yin metodi talabalarga tez tushinish imkonini beruvchi metod bo'lib, unda talabalar auditoriyada o'yin tashkil etadilar. Bunda asosan talabalar maxsus guruhlarga bo'linadilar.

Quyida modellashtiruvchi o'yinining ma'ruza va amaliy soatlari uchun dars o'tish texnologik xaritasi keltirilgan va o'yinining tashkiliy va amaliy jihatlari unda yoritilgan.

Ma'ruza mashg'ulotini olib borish texnologiyasi.

Tinglovchilarning soni: Vaqti	25-28 ta 2 soat
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot ma'ruzalari "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", «Munozara» va "Aqliy hujum" usullaridan foydalanib o'tkaziladi.
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Balanslar va ular haqida tushuncha. 2. Balanslarning turlari. 3. Balanslarning rekvizitlari to'g'risida tushuncha. 4. Buxgalteriya balanslarining tarkibiy tuzilishi va ularni rasmiylashtirish tartibi. 5. Balans moddalari
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Balanslashtirishning ahamiyati, uning turlari to'g'risida bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish.
O'qituvchining vazifalari:	O'quv faoliyatining natijalari:
<ul style="list-style-type: none"> - Balanslar va ular haqida tushuncha beradi. - Balanslarning turlarini tushuntiradi. - Balanslarning rekvizitlari to'g'risida ma'lumot beradi. - Buxgalteriya balanslarining tarkibiy tuzilishi va ularni rasmiylashtirish tartibini o'rgatadi. - Balanslarning tuzilishi va taqdim etish tartibini yoritib beradi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Balanslar va ular haqida tushunchaga ega bo'ladi. - Balanslarning turlari haqida biladi. - Balanslarning rekvizitlari to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. - Buxgalteriya balanslarining tarkibiy tuzilishi va ularni rasmiylashtirish tartibini o'zlashtirib oladi. - Balanslarning taqdim etish tartibini o'rganadi. - Balanslarning jadvalining mohiyatini ochib beradi.
O'qitish usullari	Ma'ruza, Aqliy xujum,
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, slaydlar orqali kompyuter yordamida taqdimot.
O'qitish shakli	Jamoa bilan va sindikat guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proektor yoki kompyuter orqali taqdimot o'tkazishga ixtisoslashgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, test, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Jarayonlar va vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Tinglovchilar
1- bosqich. Kirish (5 min.)	<p>1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mashg'ulotda ko'riladigan masalalarning boshqa mavzular bilan bog'liqligi to'g'risida ma'lumot beradi.</p>	<p>1.1. Tinglashadi, yozib oladilar</p> <p>1.2. Tinglashadi va qayd qilib borishadi.</p>
2- bosqich. Bilimlar-ni faol- lashtirish (20 min.)	<p>2.1. Avvalgi mashg'ulotda mustaqil o'rganish uchun berilgan savollar asosida bilimlarni esga solish uchun tinglovchilar bilan "Blits-so'rov" usulida savol-javob o'tkaziladi.</p> <p>2.2. Mavzuni "Aqliy hujum" uslubidan foydalangan holda mustaqil o'rganish natijalari muhokama qilinadi.</p>	<p>2.1. Savollarga javob berishadi.</p> <p>2.2. "Aqliy hujum" usulidan foydalanib mavzuni o'rganish natijalari bayon etiladi.</p>
3- bosqich. Asosiy (45 min.)	<p>3.1. Mashg'ulotda ko'rib o'tiladigan reja savollarini e'lon qiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Balanslar va ular haqida tushuncha. 2. Balanslarning turlari. 3. Balanslarning rekvizitlari to'g'risida tushuncha. <p>3.2. Ma'ruzani reja bo'yicha tushuntiradi va har bir reja savolining oxirida qisqa muhokama asosida umumlashtiruvchi fikr bayon etiladi. Jarayon slaydlarni namoyish qilish bilan olib boriladi</p> <p>3.3. Mashg'ulot davomida tinglovchilarga savollar bilan murojaat etiladi va "Aqliy hujum" usulidan foydalanib, barcha g'oyalarni yozib boradi hamda umumlashtiradi.</p>	<p>3.1. Berilgan ma'lumotlarni o'zlarida qayd qilib borishadi.</p> <p>3.2. Har bir savol yakunidagi muhokamada ishtirok etishadi.</p> <p>3.3. Berilgan savollarga o'z fikrlarini bayon etishadi.</p>
4- bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>4.1. O'tilgan mavzu yuzasidan yakuniy xulosa chiqariladi.</p> <p>4.2. Mavzu yuzasidan mustaqil o'rganish uchun savollar beriladi.</p> <p>4.3. Guruhlar ishini baholaydi.</p>	<p>4.1. Tinglashadi.</p> <p>4.2. Savollarni yozib olishadi.</p> <p>4.3. Reyting tizimi asosida</p>

**“Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni” mavzusi bo‘yicha dars
o‘tishda modellashtiruvchi amaliy o‘yinlarni qo‘llash bo‘yicha
Pedagogik texnologiyasi.**

Vaqt: 2 soat.	Talabalar soni: 25 ta.
Mashg‘ulot shakli	Nazariy bilimlar asosida bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarish.
Mashg‘ulot rejasi	1.Mavzu mazmuniga kirish. 2.Bilimlarni jonlantirish. 3.O‘yin bilan individual tanishish. 4.o‘yinni kichik guruhlarda yechish va taqdim qilish. 5.Natijalarni tahlil qilish va baholash. 6.Mashg‘ulotni yakunlash. Guruh va talabalar faoliyatini hamda o‘quv mashg‘ulotida erishilgan yutuqlarni baholash.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalar egallagan nazariy bilimlar asosida amaliy harakatlar, fikrlash orqali muayyan iqtisodiy va moliyaviy vaziyatni to‘g‘ri baholab, asosli boshqaruv qarorlarini qabul eta bilishlari kerak.	
Pedagogik vazifalar:	O‘quv faoliyati natijalari:
<ul style="list-style-type: none"> ✓ Korxonaning pullik xujjatlari bilan tanishtiradi; ✓ O‘yinda berilgan topshiriq va vazifalari ketma-ketligi bilan tanishtiradi; ✓ oxirgi xulosalar beriladi va asoslanadi. 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Buxgalteriya balansi haqida dastlabki bilimlarni egallaydilar. ✓ Balans moddalari korrespondensiyalaini o‘rganadi. ✓ balans ma’lumotlariga asosan korxonaning moliyaviy holatiga baho bera oladilar. ✓ xulosa va qarorlarni asoslash va himoya qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.
O‘qitish usullari	modellashtiruvchi amaliy o‘yinlarni qo‘llash, kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish, amaliy mashg‘ulot, bahs
O‘qitish vositalari	modellashtiruvchi amaliy o‘yin ssenariysi, tarqatma materiallar, markerlar, skotch, A32 qog‘oz varaqlari
O‘qitish shakllari	Individual va guruhlarda ishlash
O‘qitish sharoiti	Guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baho	Kuzatuv, blits-so‘rov, taqdimot, baholash.

O'quv mashg'ulotining texnologik kartasi

Ish bosqichari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
	O'qituvchining	Talabalarning
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, Modellashtiruvchi amaliy o'yin ishlab chiqadi. Modellashtiruvchi amaliy o'yin materiallari bilan tanishish va yechish uchun talabalarga tarqatadi. Vaziyatni tahlil qilish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Mustaqil tahlil qilishni va natijalarni vaziyatni tahlil qilish varag'iga kiritishni topshiradi.	Modellashtiruvchi amaliy o'yin mazmuni bilan tanishadilar. Mustaqil tayyorgarlikni boshlaydilar. Vaziyatni tahlil qilish varag'ini individual ravishda to'ldiradilar.
1-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daq)	<p>1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini hamda olib borilish rejasini ma'lum qiladi</p> <p>1.2. Modellashtiruvchi amaliy o'yinning maqsadini va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta'sirini aniqlaydi.</p> <p>1.3.Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi .</p>	Tinglaydilar, savollar beradilar, tanishadilar
2-bosqich. Asosiy qism. (60 daq)	<p>2.1.Mavzu bo'yicha blits-so'rov usulida talabalar bilimlari aniqlab olinadi.</p> <p>2.2.Talabalarni guruhlarga bo'ladi. Modellashtiruvchi amaliy o'yin bilan mustaqil ishlash natijalarini kichik guruhlarda muhokamasini tashkil qiladi, Kollektiv ravishda vaziyatni tahlil varag'ini to'ldirishni, individual holda echilgan muammoli vaziyat echimi bo'yicha muhim natijalarni baholash va tanlashni, taqdimotga tayyorlashni topshiradi.</p>	Savollarga javob beradilar, muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar Topshiriqlarni muhokama qiladilar, vaziyatli holatni mustaqil tahlil qiladilar.
	<p>2.3.O'quv faoliyatini boshqaradi, maslahat beradi. Individual ish natijalarini tekshiradi va baholaydi.</p> <p>2.4.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi.</p> <p>2.5. Modellashtiruvchi amaliy o'yinni hal qilish ishlari natijalari bo'yicha guruhlardan vakillarini taqdimotga chaqiradi.</p> <p>2.6.Taqdimot davomida guruh vakillariga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi.</p> <p>2.7.Topshiriqlar yechimini guruhlalararo baholanishini tashkil qiladi. Har bir guruhning ish natijalari umumlashtiriladi va xulosalar beriladi, o'zaro baholanadi.</p>	Guruhlarda birgalikdagi topshiriqlarni bajaradilar. Guruhlar ish natijalarining taqdimotini o'tkazadilar. Bahsda ishtirok etadilar, savollar beradilar, baholaydilar
3-bosqich. Yakunlovchi. (10 daq)	<p>3.1.Mashg'ulotga yakunlovchi xulosalar qiladi. Natijalarni izohlaydi.</p> <p>3.2.Har bir ishtirokchini hisob-kitob ishlarini to'g'ri va aniq bajargani, ma'ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi.</p> <p>3.3.Yana bir bor modellashtiruvchi amaliy o'yinning maqsadini va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta'sirini aytib o'tadi.</p>	Tinglaydilar, aniqlashtiruvchi savollar beradilar.

Misol: “Buxgalter lavozimiga ishga qabul qilish” o‘yini.

O‘yinning maqsadi: o‘quvchitalabalarning ikki yoqlama yozuv, hisobvaraqlar va ularda xo‘jalik muomalalarining aks etishini puxta o‘zlashtirishlariga erishish.

O‘qituvchi o‘yinda o‘rganiladigan tushunchalarni esga solib, qaytaradi. O‘yinning maqsadini tushuntiradi. Guruh uchga bo‘linadi. Guruhdagi eng iqtidorli talabalardan 3 kishi «ekspertlar» guruhini tashkil etadi. Ular mahsulot tannarxini aniqlashni turi haqida kelishib olishadi.

Ikkinchi guruh xo‘jalik yurituvchi subyektda tashkil etilgan «bosh buxgalter» boshchiligidagi 5 kishidan iborat. Ular ishlab chiqarish xarajatlari hamda noishlab chiqarish xarajatlarini guruhlarga bo‘ladilar, E‘lon vatman qog‘ozga yozilgan, slayd, tarqatma material tarzida bo‘lishi mumkin.

Uchinchi guruh qolgan barcha o‘quvchi-talabalar, ular kasb – hunar kollejini yoki institutni bitirib, shu xo‘jalik yurituvchi subyektga yosh mutaxassis sifatida ishga kirishmoqchi.

Komissiya ularga bir necha bosqichda topshiriq berib, ularni to‘g‘ri bajarib, eng yuqori ball to‘plaganlarni ishga qabul qilmoqchi.

O‘qituvchi o‘yin o‘tkazish qoidalarini o‘quvchi-talabalarga tushuntiradi: har bir o‘quvchitalabaga uch bosqichda topshiriq beriladi: Birinchi topshiriq nisbatan oson testlar. Ularni kamida yarmini to‘g‘ri yechganlar kelgusi turda qatnashish huquqini qo‘lga kiritadi.

Ikkinchi bosqichda mashq beriladi, uning to‘g‘ri - noto‘g‘riligini aniqlab, sababini yozib ko‘rsatilishi kerak. Uning ham kamida yarmini to‘g‘ri bajarganlar kelgusi bosqichga qo‘yiladi.

Uchinchi bosqichda ataylab noto‘g‘ri bajarilgan ishlar beriladi. Uni kamchiligini topib, to‘g‘ri bajarish so‘raladi. Har bir bosqichda bajarilgan ishlarni tanlov komissiyasi a‘zolari tekshirib, baholaydilar. Ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ekspert komissiyasi tekshirib, xulosa chiqaradi. O‘qituvchi o‘yinni qanday o‘tayotganini kuzatib turadi. Bunda unga ekspert komissiya a‘zolari

yordam beradi. O'quvchi-talabalar qo'yilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzuni tushunib oladilar.

O'yin o'tkazish tafsiloti.

Guruh uchga: ekspertlar, tanlov komissiyasi a'zolariga bo'linib, o'z joylarini egallashadi. Birinchi navbatda tanlov komissiyasi tomonidan tayyorlangan e'lon matni ko'rsatiladi. Uni o'qib, o'quvchi - talabalar mahsulot tannarxini topadi.

Keyingi faza topshiriqni bajarish: bunda o'quvchi-talabalarga birinchi topshiriq testlar beriladi. Ular quyidagacha bo'lsin:

1-tarqatma material

Tanlovda qatnashuvchilar uchun 1-topshiriq testlar:

1. Moliyaviy hisobot standartlari ehtiyojlariga nima sabab bo'ldi?

- A) barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobotlariga bir xilda yondashish;
- B) hisobotlar tuzishni osonlashtirish;
- C) buxgalteriya yuritishni osonlashtirish;
- D) investitsiya qo'yishi osonlashtirish;

2. Xo'jalik mablag'lari va jarayonlarini qaysi o'lchov umumlashtirib ko'rsatadi?

A) natura o'lchovi; B) pul o'lchovi; C) mehnat o'lchovi; D) shartli o'lchov birligi.

3. Tezkor hisobning asosiy vazifasi nimadan iborat?

- A) boshqaruvga malumot berish uchun;
- B) ishlab chiqarishdagi salbiy holatlarga bardam berish;
- C) ishlab chiqarishdaga ijobiy holatlarni ruyxatga olish;
- D) ko'zatilayotgan ob'ektlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar xaqidagi zarur

ma'lumotlarni tezkorlik bilan etkazish;

4. Ikki yoqlama yozuvni birinchi bo'lib kim kashf qilgan?

- A) Imperator Maksimilian I; B) Mikelanjelo; C) Luka Pacholi;
- D) Leonardo da Vinchi.

5. Buxgalteriya hisobi fanini vujudga kelishi sababini tarixan nima bilan izoxlash mumkin?

- A) savdo-sotikning rivojlanishi;
- B) ishlab chiqarishning rivojlanishi;
- C) tovar ishlab chiqarishni vujudga kelishi bilan;
- D) mehnat taqsimotini chuqurlashuvi bilan.

6. Ikki yoqlama yozish deb, ...

- A) hisob daftarining ikki tomoni bo'yicha axborotlarni yozib borishta;
- B) xo'jalik muomalalarini ikkita daftarda qayd etishga;
- C) xo'jalik muomalalarini tranzit hisobvaraqlarda yozib borilishiga;
- D) xo'jalikda sodir bo'lgan muomalalarni hisobvaraqlar orqali o'zaro

aloqadorlikda aks ettirishga aytiladi.

7. Muomalalar summasi ikkiyoqlama yozuvda qanday aks ettiriladi?

- A) bir hisob- varaqning krediti va ikkinchi schetning xam kreditida;
- B) bir schetning debetida, ikkinchi schetning xam debetida;
- C) bir hisobvaraqning debetida ayni chogda ikkinchi hisobvaraqning

kreditida teng summada aks ettiriladi;

D) bir hisobvaraqning xam debetida xam kreditida aks ettiriladi.

8. Buxgalteriya hisobida foyda ...

- A) hisobot davrida o'tgan yilga nisbatan xarajatlarni kamayishi;
- B) hisobot davrida olingan barcha daromadlarni xarajatlardan ortishi;
- C) maxsulot ishlab chiqarishni ko'payishi tufayli olingan daromad;
- D) maxsulot sotishni ko'payishi natijasida korxonaning hisob-kitob

schetidagi mablag'larning ko'payishi deb, e'tirof etiladi.

9. Hisobvaraqlar rejasi deganda nimani tushunamiz?

A) hisobvaraqlarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir tizimga solingan ro'yxati;

- B) hisobvaraqlarda muomalalarni aks ettirish rejasi;
- C) hisobvaraqlarni aktiv va passiv hisobvaraqlarga bo'lish rejasi;
- D) hisobvaraqlarda aks etadigan muomalalarning rejasi.

10. Sintetik schyotlar qanday ma'lumotlarni beradi?

- A) mehnat o'lchovidaga ma'lumotlarni;

- B) pul o'lovchidaga ma'lumotlarni;
- C) natura o'lovchidaga ma'lumotlarni;
- D) xo'jalik mablag'lari va muomalalari xaqida umumlashtirilgan ma'lumotlarni.

Testlar bilimni sinovchi tarqatma material sifatida tayyorlanadi va ishga kirish uchun ariza bergan o'quvchi-talabalarga tarqatiladi. Har bir testni yechish uchun 1 daqiqadan vaqt beriladi va har bir to'g'ri javob bir ball baholanadi. Kim berilgan vaqtdan ertaroq testni yechib toshnirsa, javobiga qarab, keyingi bosqich topshirig'i beriladi

Testning yarmini to'g'ri yechganlar, keyinga bosqichga o'tadi. Bu topshiriq ham tarqatma material qilib tayyorlanadi va ikkinchi bosqichga o'tgan o'quvchi-talabalarga beriladi. Bu topshiriq avvalgiga nisbatan murakkabroq. Har bir fikrga bildirilgan javobni yozish uchun 1 minut vaqt beriladi va to'g'ri javob 1 ball baholanadi. Ishga kiruvchilar bu topshiriqni bajarishguncha ekspertlar tanlov komissiyasining testlar javobiga qo'ygan baholari to'g'riligini tekshirishadi.

Ikkinchi bosqichda quyidagi topshiriq beriladi.

2-tarqatma material

Tanlovda qatnashuvchilar uchun 2-topshiriq.

Quyidagi bildirilgan fikrlarni diqqat bilan o'qing. Ularni to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsating. Fikringazning isbotini yozib bering.

Balans - o'lovch degan ma'noni bildiradi.

Buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozish deb, xo'jalik muomalalari natijasida vujudga keladigan, iqtisodiy aloqalarni hisobvaraqlar orqali o'zaro aloqador holda aks ettirish usuliga aytiladi.

Ikki yoqlama yozuv orqali hisobvaraqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni belgalash hisobvaraqlarni nazorat qilish deyiladi.

Hisobvaraqlarning debeti va kreditida muomala summasining ko'rsatilishi buxgalteriya provodkasi deb ataladi.

Buxgalteriya hisobida iqtisodiy muomalalarni hisobvaraqlarda aks etishi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi.

Ikki yoqlama yozuv orqali hisobvaraqlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni belgalash buxgalteriya provodkasi deyiladi.

Bajarilgan muomalaning bir hisobvaraqlarning debetida, ikkinchi hisobvaraqlarning kreditida ifodalanishi oddiy buxgalteriya provodkasi deyiladi.

Hisobvaraqlar bu buxgalteriya hisobining asosiy elementlaridan bo'lib, ular hisob - kitobni, nazoratni osonlashtiradi. Xo'jalik faoliyatidagi muomalalar, mablag'lar harakati, ularning manbalarini aks ettiradi.

Hisobvaraqlar bo'yicha yozuvlar yakunlari saldo (qoldiq) deb ataladi.

Buxgalteriya balansiga muvofiq hisobvaraqlar ikkiga bo'linadi.

Aktiv hisobvaraqlar deb, mablag'larning kelib chiqishi manblarining holati va harakatini hisobga oladigan hisobvaraqlarga aytiladi.

Murakkab buxgalteriya provodkasi deyilganda birdaniga bir necha hisobvaraqlar kreditlanib, bittasi debetlanishi tushuniladi yoki teskarisi.

Ikkinchi topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganlar navbatdagi 3-bosqichga o'tishadi. Uchinchi bosqichdagi topshiriq murakkabroq tuziladi. Unda ataylab xatoga yo'l qo'yilgan. Uni bajarish avvalgilariga qaraganda chuqurroq bilim talab etadi.

Tanlovda qatnashuvchilar uchun 3-topshiriq		
1. Aktiv hisobvaraqlar chizma tarzida quyidagicha ifodalangan		
Debet	Aktiv hisobvaraqlar	Kredit
Oy boshidagi saldo		Mablag'larning ko'payishi
Mablag'larning kamayishi		Oy oxiridagi saldo.
Oy oxirida saldoning berilishi to'g'rimi? Hisobvaraqlarni tuzilishi to'g'ri bo'lsa, to'g'riligini isbotlang, xato bo'lsa, xatolarini ko'rsating.		
2. Aktiv hisobvaraqlardan biri 50 kassadagi pul mablag'larining hisobvaraqlari. Odatda, ko'proq milliy valyutadagi pul mablag'lari operatsiyalari amalga oshiriladi. Yuqoridagi misolimiz bo'yicha oyning boshidagi saldo 50 ming so'm desak oy davomida bir necha marta xisob-kitob schyotidan kassaga pul tushdi: 500 ming so'm, 200 ming so'm, 300 ming so'm, shu bilan birga kassadan xodimlarga 300 ming so'm, ishchilarga 600 ming so'm ish xaqi to'landi, desak ana shu operatsiyalar bu hisobvaraqlarda qanday aks etishini ko'rsating. Oy oxiridagi saldoni aniqlang. Yuqoridagi chizmada ko'rsatilgani bo'yicha saldoni xisoblasak javobi qanday bo'lishi mumkin? To'g'ri javobni ko'rsating.		
(Asosiy diqqatni shu hisobvaraqlarga qarating, boshqa hisobvaraqlar bilan bog'lanishni tahlil qilmang.)		

2-chizma: Tanlovda qatnashuvchilar uchun 3-topshiriq.

- topshiriqni bajarish uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.
- bajarilgan operatsiyalarni hisob schyotlarida to‘g‘ri aks ettirish 2 ball;
- debet va kredit bo‘yicha oborotlarni to‘g‘ri hisoblash 2 ball.
- oy oxiridagi saldoni to‘g‘ri aniqlash 2 ball;

Javoblarni berilgan aktiv hisobvaraqlarning debeti va kredit hamda saldosi bilan taqqoslash asosida chiqarilgan xulosaning javobi to‘g‘ri bo‘lsa 2 ball.

Shunday qilib, to‘planishi mumkin bo‘lgan maksimal ball 32 ball. Tanlovda 1-3 o‘rin olgan talabalar ishga qabul qilinadi.

Tanlov komissiyasi a‘zolariga va ekspertlarga ballni o‘qituvchi, ularni javoblarni tekshirish bo‘yicha xato qilganlarni yoki yo‘qligiga qarab qo‘yadi. Buning uchun har bir tanlov va ekspert komissiyasi a‘zosi tanlov ishtirokchilari javobini tekshirish kerak.

Kichik guruh bo‘lib, birgalikda bir-birlariga yordam berib, topshiriqni bajarishadi.

Yetarli darajada ball to‘play olmay tanlovdan chiqib ketgan quyidagi chizmada passiv hisobvaraqlarda oy davomida bajarilgan operatsiyalarni hisobga olib, oy oxiridagi saldoni aniqlash sxemasini ko‘rib chiqadi.

Noto‘g‘ri. Ikki yoqlama yozuv orqali hisobvaraqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni belgilash hisobvaraqlar korrespondensiyasi deyiladi. Bir hisobvaraqlarning debeti va ikkinchi hisobvaraqlarning kreditida ifodalanishi orqali bu hisobvaraqlar bir - biri bilan bog‘lanadi.

To‘g‘ri. Xo‘jalik muomalalari provodka orqali tegishli debetlanuv va kreditlanuvchi hisobvaraqlarda muomala summasi ko‘rsatiladi, ya‘ni rasmiylashtiriladi. Ular birlamchi xujjatlar asosida tuziladi.

To‘g‘ri. Ana shu aloqadorlikni aks ettirish usuli ikki yoqlama yozish deb ataladi. Chunki bu muomalalar bir hisobvaraqlarning debetida, ikkinchisining esa kreditida aks etadi.

Noto‘g‘ri. Hisobvaraqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni belgilash hisobvaraqlar korrespondensiyasi deyiladi. Ya‘ni, bajarilgan muomalalar qaysi

hisobvaraqa debetida va qaysi birining kreditida ifodalanishi aniqlanadi. Masalan, ishchilarga ish haqi kassadan iyun oyi uchun 1 million so‘m to‘lanadi. Demak bunda 5010 kassa - Milliy valyutadagi pul mablag‘lari va 6710 - Ishchi va xizmatchilarga ish xaqi yuzasidan qarzlarning hisobvaraqlarini o‘zaro bog‘lanishi, ya’ni hisobvaraqlar korrespondensiyasini hosil qiladi.

To‘g‘ri. Chunki bir muomala summasi ikkita hisobvaraqa aks etayapti, unda hech qanday murakkablik yo‘q.

To‘g‘ri. Maxsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko‘rsatishdagi muomalalarni hisobvaraqlarsiz olib borib bo‘lmaydi. Umuman olganda, hozirgi buxgalteriya hisobini hisobvaraqlarsiz tasavvur xamqilib bo‘lmaydi. Buxgalteriya ob’ektining har bir turi uchun alohida hisobvaraqa ochiladi.

Noto‘g‘ri. Hisobvaraqlar bo‘yicha ikki yoqlama yozuv yakunlari oborotlar deb ataladi. Debet va kredit oborotlari o‘rtasidagi tafovut esa saldo deb ataladi.

To‘g‘ri. Ular aktiv va passiv hisobvaraqlarga bo‘linadi.

Noto‘g‘ri. Aksincha. Mablag‘larning kelib chiqish manbalarini holati va harakatini hisobga oladigan hisobvaraqlarni passiv hisobvaraqlar deb aytiladi. Aktiv hisobvaraqlar esa xo‘jalik mablag‘lari holati va o‘zgarishini hisobga oladi.

Noto‘g‘ri. Bir muomalada bitta hisobvaraqa debetlanib, bir nechta kreditlansa, bir hisobvaraqa kreditlanib bir necha hisobvaraqa debetlanishi tushuniladi. Boshqacha bajarilgan operatsiyalar noto‘g‘ri hisoblanadi.

Topshiriqlarning javoblari:
Birinchi topshiriqning javoblari:
1. A); 2.B); 3.D); 4.C); 5.C); 6.D); 7.C); 8.B); 9.A); 10.D);
Ikkinchi topshiriqning javobi:
1. Noto‘g‘ri. Balans lotincha bis - ikki, banx - «taroz pallas» so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib «ikki palla» degan ma’noni anglatadi, tenglik muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.
2. To‘g‘ri. Ikki yoqlama yozuv buxgalteriya hisobining asosiy qoidalaridan biri bo‘lib, barcha xo‘jalik muomalalari bir hisobvaraqa debetida ayni vaqtda boshqa hisobvaraqa kreditida teng summada aks

3-chizma: 1-2 topshiriqlarning javoblari.

3-topshiriqning javobi:

Hisobvaraqdagi ayrim yozuvlar chizmada noto'g'ri aks ettirilgan.

Bular: 1. Debetda mablag'larning kamayishi emas, ko'payishi deb yozilishi kerak. Mablag'larning kamayishi, aksincha hisobvaraqlarning kreditida aks etadi. Oy oxiridagi saldo ham debetida hisoblanadi. Chunki u aktiv hisobvaraqlar. Bajarilgan operatsiyalar bo'yicha yozuvlarni to'g'ri aks ettirsak u quyidagicha bo'ladi.

- Aktiv hisobvaraqlar
- Mablag'larning kamayishi
- Oy boshidagi saldo, mablag'larning ko'payishi
- Oy oxiridagi saldo

2. Aktiv hisobvaraqlar kassadagi pul mablag', 5010-milliy valyutadagi pul mablag'lari bo'yicha bajarilgan operatsiyalar asosida oy oxiridagi saldoni topish uchun debet bo'yicha va kredit bo'yicha oborotlarni hisoblashimiz kerak.

D-t 5010 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 500 ming so'm.

K-t 5110 Hisob - kitob schyoti, 500 ming so'm Ikkinchi marta:

D-t 5010 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 200 ming so'm.

K-t 5110 Hisob - kitob schyoti, 500 ming so'm

D-t 5010 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 300 ming so'm.

K-t 5110 Hisob - kitob schyoti, 300 ming so'm

Kassadan xodimlarga ish xaqi berilganda, 6710 Xodimlar bilan ish xaqi bo'yicha hisob-kitoblar schyoti bilan bog'lanadi. Kassadagi pul kamayadi. Xodimlar bo'yicha ham kamayadi.

U holda:

K-t 5110 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 300 ming so'm

D-t 6710 Xodimlar bilan ish xaqi bo'yicha hisob - kitoblar,

Ikkinchi marta:

K-t 5110 Milliy valyutadagi pul mablag'lari, 600 ming so'm

D-t 6710 Hisob - kitob schyoti, 600 ming so'm

Aktiv hisobvaraqlar bo'yicha oy oxiridagi saldoni topish uchun oy boshidagi qoldik (saldo) schyotining debet oboroti (Od-t) qo'shib, kredit

oborotini (Ok-t) ayiramiz. Agar raqamlarni qo‘yib hisoblasak aktiv hisobvaraqlarni oy oxiridagi saldosi yuqoridagi noto‘g‘ri chizma bo‘yicha aniqlay olmasligimizga qat‘iy ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Yetarli darajada ball to‘play, olmay tanlovdan chiqib ketganlar uchun berilgan topshiriqning javobi: Chizmada oy davomida bajarilgan o‘preatsiyalarni hisobga olgan holda passiv hisobvaraqlarning oy oxiridaga saldosi hisoblash modeli noto‘g‘ri ko‘rsatilgan. Passiv hisobvaraqlarda mablag‘larning manbalari holati va harakati hisobga olinadi. Shuning uchun mablag‘lar emas, balki mablag‘lar manbayining ko‘payishi deb yozilishi kerak.

Passiv hisobvaraqlarda debetda mablag‘lar manbayining kamayishi, aksincha, kreditda mablag‘lar manbayining ko‘payishi yuz beradi. Shuning uchun ularning o‘rnini almashtirish lozim. Saldo to‘g‘ri yozilgan.

O‘quvchi-talabalar ularni o‘z javoblari bilan solishtiradilar. So‘ngra muhokama qilish boshlanadi.

Qanday metodni qo‘llab dars o‘tishdan qat‘iy nazar, to‘g‘ri javobni shunchaki aytib quyish yetarli emas. Asosiysi, javobni muhokama qilib, nima sababdan aynan shu javob to‘g‘ri ekanligini talabaiing ongiga etkazishdir. Ana shundagina talaba o‘rganayotgan mavzuni puxta o‘zlashtiradi va darsdan qo‘yilgan maqsadga erishadi.

Modellashtiruvchi o‘yinlarda ham o‘yinni tugatgach, natijasi muhokama qilinishi zarur. Muhokama oxirida barcha qatnashchilarga berilgan ballar e‘lon qilinadi. O‘qituvchi barcha ishtirokchilarga o‘yinda qatnashganlari uchun minnatdorchilik bildiradi va kelgusi darsning mavzusi va unda qo‘llaniladigan metodlar e‘lon qilinadi.

Aytib o‘tish joizki modellashtiruvchi o‘yin metodini qo‘llashda afzallikning eng ko‘zga ko‘ringan tomoni shuki, unda barcha talabalar bevosita darsda ishtirok etadilar va dars samaradorligi oshishiga erishiladi.²⁰

²⁰ Azizxodjaeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”.-T.: Moliya, 2003.-192 b.

3-bob bo'yicha xulosa

Uchinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida ko'rib o'tganimiz "Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni" mavzusini tashkil etishda modellashtiruvchi metodni qo'llashning samaradorligining tahlili va takomillashtirishga qaratilgan omillar tahlili avvalambor shaxsga bog'liqdir. Hozirgi kunda talaba - yoshlarga bo'lgan e'tibor natijasi talabalarni tadqiqotning asosiy ob'ektiga aylantiradi. Mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlar uchun avvalambor ta'lim muassasalari tubdan yangilanib, hozirgi zamon talablariga to'la javob beradigan ilm dargohlari qurib, foydalanishga topshirildi. Kadrlar sohasiga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, qator qonun hujjatlari ishlab chiqildi.

Avvalambor, o'quv jarayonida nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki, amaliyot bilan ko'proq ishlash kerak. Buning uchun birinchi galda o'qituvchilarni amaliyot bilan ko'p ishlaganlarini dars jarayoniga qatnashtirish kerak. Bundan tashqari hozirgi kunda jahon ta'lim tizimida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanish kerak. Bunga birgina turli ko'rgazmali o'quv qurollaridan foydalanishni aytib o'tish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi ning bosh maqsadi o'quv jarayonida modellashtiruvchi o'yin metodini qo'llab darsni tashkil etishdir. Yuqoridagilarga asosan maqsad bilan bog'laydigan bo'lsak, ushbu metod talabalarni darsga qatnashish samarasini oshirib, o'tilgan mavzuni tez qabul qilishga asos bo'ladi.

O'yin jarayonini tashkil etish albatta o'qituvchiga borib taqaladi. O'yinni samaraliligini ta'minlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni qo'llash mumkin:

- O'quv jarayoniga ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llash;
- Dars jarayonida turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish, tarqatma materiallar ishlab chiqish, test hamda krassvordlar tuzish;
- Muntazam ravishda mavzular va mutaxassisslik bo'yicha yangiliklardan xabardor qilish;
- Ochiq dars jarayonlarini tashkil etish;

Ushbu tavsiyalar orqali talabalar bilim darajasi ortadi albatta. Bundan tashqari darsning samaradorligi oshib, kadrlarda mustaqil fikrlay olish ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Bugungi kun ta'lim tizimining bosh maqsadi har tomonlama yetuk kadrlarni yetkazishdir. Buning uchun ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari yangicha shaklda olib borilmoqda. Ilgarigi an'anaviy usullardan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga o'tilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma yig'ilishida: "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir" deb nomlangan ma'ruzasida Respublikamizda keying yillarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, ustuvor yo'nalishlar haqida to'xtalib, kadrlarning malakasi, ishbilarmonligi va ma'suliyatini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Respublikamizda bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida oliy ta'limning xizmatlari samaradorligini oshirish, ta'lim tizimidagi qonuniyatlarni tadqiq etish, kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirishini baholab borish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ishlab chiqilgan qonunlarda ta'lim tizimini isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kundagi asosiy vazifa asosan talaba – yoshlarning malaka darajasiga qaratilmoqda. Eng avvalo kadrlar malakasini oshirish hayotiy majburiyat bo'lib, iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda har kuni jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Bugungi kundagi ushbu o'zgarishlarni o'zlashtirib boorish, talaba – yoshlarga ushbu jarayonlarni yetkazib berish o'qituvchilardan ham kata ma'suliyat talab qiladi.

Qolaversa talaba yoshlar ham ushbu borada o'z bilim va ko'nikmalarini turli manbalar bilan boyitib bormoqdalar. Ushbu jarayonlarning bosh maqsadi talabalar o'zlarini olgan bilimlarini puxta egallab, mutaxassisliklari bo'yicha zamonaviy bilimga ega bo'lishlaridir. Bundan tashqari olgan bilimlarini qolganlar bilan

o'rtog'lashishlariga qaratilgan. Shunday ekan nimalarga e'tibor qaratish lozim, ya'ni qanday tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir. Ma'naviy intellektual sifatlarni zamonaviy usullarda aniqlash tarbiyaviy jarayonga samarali o'zgarishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarni odilona baholash tizimi tarbiy mazmuni, usullari va uning tashkiliy shakllarini yaxshilashga doir tuzatishlar kiritishi lozim.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bir bo'laki modellashtiruvchi metod avvalambor talabalarning mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu jarayonda barcha talabalar o'qituvchi boshchiligida darsga qatnashishadi.

Talabalarga mutaxassislik bo'yicha bilimlardan tashqari boshqaruv jarayonini ham o'rgatish lozim. Buni ham biz yuqoridagi metod orqali qo'llay olamiz albatta.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida shuni xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobi faoliyatning bosh bo'g'ini desak yanglishmaymiz albatta. Chunki, bu hisob tizimi orqali biz sub'yektlar faoliyatini qay darajada olib borilayotganini bemalol baholay olamiz. Buning uchun esa biz Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmunini to'g'ri farqlay olishimiz kerak. Buning uchun bizga qonunchilik tizimidan ham y yetarli bilimlar bo'lishi shart. Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish bosh masala ekan, shuning uchun na'lim tizimiga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Mavzu bo'yicha quyidagi metodik tavsiyalarni bildirishimiz mumkin:

- Modellashtirish o'yinlarining mazmun-mohiyatini, maqsad vazifalarini tushuntirish talabalarning kasbiy malaka-ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi lozim;

- Modellashtiruvchi o'yin metodida motivatsiya va tasavvurni shakllantirishga alohida e'tibor berish;

- Modellashtirish o'yinlarini rejalashtirish va tayyorlashni muvofaqiyatli amalga oshirish iqtisodiy ta'lim tarbiyaning muhim sharti hisoblanadi;
- Modellashtiruvchi o'yin metodini o'tkazish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tushuntirish;
- Modellashtiruvchi o'yin metodini oldindan tushuntirish ta'lim sifati va samaradorligi kafolati ekanligini inobatga olish;
- Modellashtiruvchi o'yin metodini o'tkazishdan oldin uning didaktik va tarbiyaviy maqsadlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2016 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 1997 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi Qonuni. 1997 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz, 8 jild.-T.:O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.-176 b.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishva fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.-T.: O'zbekiston, 2010.-56 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston.-T.: 2011.-440 b.
9. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T.: O'zbekiston, 2011.-35 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

10. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent:"O'zbekiston" NMIU, 2017.-488 b.
11. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent:"O'zbekiston" NMIU, 2017.-104 b.

12. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent:“O‘zbekiston” NMIU, 2017.-56 b.

13. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent:“O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

4. Darslik va o‘quv adabiyotlari

14. Azizxodjaeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T.: Moliya, 2003.-192 b.

15. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. “Buxgalteriya hisobi”. Toshkent. «SHarq» NMAK, – 2004.

16. Ostonaqulov M. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi.T”-2005, 368 b.

17. D.Tojiboyeva. “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma. T.: “FAN VA TEXNOLOGIYA”, 2007

18. Do‘smuratov R.D. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”. T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2007 .-256 b.

19. I.Ochilov.,J.Qurbonov. “Moliyaviy hisob” .-T.: TMI , 2007,

20. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.,Pardaev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008 -180 b.

21. S.A.Madiyarova va b. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

22. H.T.Omonov.“Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” ma’ruzalar matni T. 2010

23. Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A., «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». O‘quv qo‘llanma. 2011

24. Olimov Q.T. “Pedagogik texnologiyalar”.-T.:“FAN VA TEXNOLOGIYA”. 2011.

25. Xolbekov.R.O. “Buxgalteriya hisobi nazriyasi” Darslik.-T.: CHo‘lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi -2011.

26. Jo‘raev.N.Y., F.T.Abduvahidov, D.A.Sativaldieva “Moliyaviy va boshqaruv hisobi”.-T. “IQTISOD-MOLIYA” 2012:

27. D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi”. Metodologik qo‘llanma.-T.: TDPU, 2013.

28. Sabirova D.A. “Multimedia tizimlari va texnologiyalari.” O‘quv qo‘llanma.-T: TDIU, 2014.

VII. Foydalanilgan internet saytlari

29. <http://Google.com/> (Qidiruv Sayti)

30. <http://stat.uz/> (O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi)

31. <http://Ziyouz.net/> (Respublika jamoat ta’lim axborot tarmog‘i)

32. <http://lex.uz/> (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi portali)

33. <http://gov.uz/> (Hukumat portali)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr raqami	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
A K T I V			
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (tiklanish) qiymat (0100, 0300)	010	541379,4	1003973,9
Eskirish summasi (0200)	011	171122,1	313624,7
qoldiq (balans) qiymat (010-011 satr)	012	370257,3	690349,2
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymat (0400)	020	575,0	575,0
Amortizatsiya summasi (0500)	021	230,0	339,2
qoldiq (balans) qiymat (020-021 satr)	022	345,0	235,8
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (040+050+060+070+080 satrlar), shu jumladan:	030	-	-
qimmatli qog'ozlar (0610)	040	-	-
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050	-	-
qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060	-	-
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investitsiyalar (0640)	070	-	-
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080	-	-
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090	-	-
Kapital qo'yilmalar (0800)	100	-	-
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110	-	-
Shundan: muddati kechiktirilganlari	111	-	-
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120	-	-
I-bo'lim bo'yicha jami (012+022+030+090+100+110+120 satr)	130	370602,3	690585,0
JORIY AKTIVLAR			
Tovar-moddiy zahiralari, jami (150+160+170+180 satrlar), shu jumladan:	140	499131,5	361443,8
Ishlab chiqarish zahiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	157974,4	94010,4
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	105937,0	-
Tayg'r mahsulot (2800)	170	235220,1	267433,4
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	-	-
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	204758,2	165726,3
Muddati kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200	-	-
Debitorlar, jami (220+230+240+250+260+270+280+290+300+310 satrlar)	210	84386,9	61630,7
Shulardan: muddati o'tgani (kechiktirilganlari)	211	-	-
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	65455,8	61630,7
Alohida bo'linmalarining qarzlari (4110)	230	-	-

Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120)	240	-	-
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250	-	-
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	-	-
Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270	-	-
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280	-	-
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari (4600)	290	-	-
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (4700)	300	-	-
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	18931,1	-
Pul mablag'lari, jami (330+340+350+360 satrlar), shu jumladan:	320	23168,6	23871,2
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330	-	-
Hisob-kitob varag'idagi pul mablag'lari (5100)	340	23168,6	23871,2
Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari (5200)	350	-	-
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar (5500, 5600, 5700)	360	-	-
qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370	-	-
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380	-	-
II-bo'lim bo'yicha jami (140+190+200+210+320+370+380 satrlar)	390	811455,2	612672,0
BALANS AKTIVI BO'YICHA JAMI (130+390 satrlar)	400	1182047,5	1303257,0
P A S S I V			
O'Z MABLAG'LARI MANBALARI			
Ustav kapitali (8300)	410	27590,0	27590,0
qo'shilgan kapital (8400)	420	9021,7	9021,7
Rezerv (zahira) kapital (8500)	430	298311,3	623718,1
Sotib olingan o'z aksiyalari (8600)	440	-	-
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450	-62807,7	-62807,7
Maqsadli tushumlar (8800)	460	-	-
Bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zahiralari (8900)	470	-	-
I-bo'lim bo'yicha jami (410+420+430+440+450+460+470 satrlar)	480	272115,3	597522,1
MAJBURIYATLAR			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+510+520+530+540+550+560+570+580+590 satrlar)	490	10471,4	25269,8
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (500+520+540+560+590 satrlar)	491	-	-
Ulardan: muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	492	-	-
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari (7000)	500	10471,4	25269,8
Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzlari (7110)	510	-	-

Shoʻba va qaram xoʻjalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari (7120)	520	-	-
Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar (7210, 7220, 7230)	530	-	-
Soliqlar va majburiy toʻlovlar boʻyicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar (7240)	540	-	-
Muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar (7250, 7290)	550	-	-
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan boʻnaklar (7300)	560	-	-
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570	-	-
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840)	580	-	-
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900)	590	-	-
Joriy majburiyatlar, jami (610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760 satrlar)	600	899460,8	680465,1
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (610+630+650+670+680+690+700+710+720+760 satrlar)	601	899460,8	680465,1
Ulardan: muddati oʻtgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari	602	-	-
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (6000)	610	885163,4	658079,7
Alohida boʻlinmalardan qarzlari (6110)	620	-	-
Shoʻba va qaram xoʻjalik jamiyatlaridan qarzlari (6120)	630	-	-
Muddati kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640	-	-
Soliqlar va majburiy toʻlovlar boʻyicha muddati oʻtgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (6240)	650	-	-
Muddati oʻtgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar (6250, 6290)	660	-	-
Olingan boʻnaklar (6300)	670	-	-
Byudjetga toʻlovlar boʻyicha qarzlari (6400)	680	12325,4	20746,5
Sugʻurtalash boʻyicha qarzlari (6510)	690	1022,6	685,3
Davlatning maqsadli jamgʻarmalariga toʻlovlar boʻyicha qarzlari (6520)	700	214,4	370,9
Taʼsischilarga qarzlari (6600)	710	-	-
Mehnatga haq toʻlash boʻyicha qarzlari (6700)	720	735	578,6
qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730	-	-
qisqa muddatli qarzlari (6820, 6830, 6840)	740	-	-
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750	-	-
Boshqa kreditorlik qarzlari (6900, bundan 6959 mustasno)	760	-	4,1
II-boʻlim boʻyicha jami (490+600 satrlar)	770	909932,2	705734,9
BALANS PASSIVI BOʻYICHA JAMI (480+770 satrlar)		1182047,5	1303257,0

**Balansdan tashqari schyotlarda hisobga olinadigan qiymatliklarning mavjudligi to'g'risida
ma'lumot**

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
qisqa muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar (001)	790		
Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002)	800		
qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003)	810		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar (004)	820		
O'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005)	830		
qat'iy hisobot blankalari (006)	840		
To'lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007)	850		
Olingan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (008)	860		
Berilgan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (009)	870		
Uzoq muddatli ijara shartnomasiga asosan berilgan asosiy vositalar (010)	880		
Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (011)	890		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012)	900		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha) (013)	910		
Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (014)	920		

Rahbar _____

Bosh buxgalter _____

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjud bo'lgan hollarda ularning
rasshifrovkasi

Buxgalteriya balansining ilovasiga muvofiq keltiriladi.

**Buxgalteriya balansiga
ILOVA**

MUDDATI O'TGAN DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI RASSHIFROVKASI

20 ____ YIL _____ holatiga

№	Muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan debitorlik va kreditorlik ro'yxati	Muddati o'tgan umumiy qarz	Tashkilotga bo'g'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha vujudga kelgan muddati o'tgan qarzlarning shu jumladan				
			Jami	Hukumat qarorlariga asosan oldindan haq to'lamay jo'natilgan (olingan) mahsulotlar bo'yicha muddati qarzlari	Davlat resurslari va jamg'armalari jo'natish ko'zda tutilgan xom ashyo va materiallar bo'yicha o'tkazilgan bo'nak to'lovlari summasi	Hukumat qarorlari bo'yicha kechiktirilgan qarzlari	Qonunchilikka muvofiq da'volar bo'yicha sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan yoki xo'jalik sudi tomonidan kreditordandan undirish to'g'risida qaror chiqqan qarzlarning summasi
1	2	3	4	5	6	7	8
MUDDATI O'TGAN DEBITORLIK QARZLARI							
1.	Muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan debitorlar, jami						
2.	Respublika ichidagi muddati o'tgan qarzlari, jami						
2.1	Shu jumladan, debitorlar nomi bo'yicha						
2.2	Ichki idoraviy muddati o'tgan qarzlari, jami						
2.2.1	Shu jumladan, debitorlar nomi bo'yicha						
3.	Respublikadan tashqaridagi muddati o'tgan qarzlari, jami						
MUDDATI O'TGAN KREDITORLIK QARZLARI							
4.	Muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lgan kreditorlar, jami				X		
5.	Respublika ichidagi muddati o'tgan qarzlari, jami				X		
5.1	Shu jumladan, kreditorlar nomi bo'yicha				X		
5.2	Ichki idoraviy muddati o'tgan qarzlari, jami				X		
5.2.1	Shu jumladan, kreditorlar nomi bo'yicha				X		
6.	Respublikadan tashqaridagi muddati o'tgan qarzlari, jami				X		
6.1	Shu jumladan, kreditorlar nomi bo'yicha				X		

Rahbar _____

Bosh buxgalter _____